

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**  
**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**  
**SHARQ FILOLOGIYASI FAKULTETI**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**MAVZU: “VAQT” KONSEPTINING ARAB VA O‘ZBEK  
TILLARIDAGI QIYOSIY TAHLILI**

**Bajardi:** 5120100 - “Filologiya va tillarni  
o‘qitish” (arab tili) ta’lim yo‘nalishi  
bitiruvchi kurs talabasi Otahanov Adham  
Haydarali o‘g‘li \_\_\_\_\_

**Ilmiy rahbar:** “Arab filologiyasi” kafedrası  
o‘qituvchisi I.Yu. Bultakov \_\_\_\_\_

**Toshkent - 2019**

## Битирув малакавий иши ҳимояга тавсия этилди

“Шарқ филологияси”

факультети декани

ф.ф.д.Қ.Ш.Омонов

“Араб филологияси”

кафедраси мудири

ф.ф.д., проф. Ш.Ғ.Шомусаров

\_\_\_\_\_ 20\_\_ йил

\_\_\_\_\_ 20\_\_ йил

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	<b>4</b>
<b>I BOB. ARAB TILIDA KONSEPTNING NAZARIY ASPEKTLARI</b> .....	<b>8</b>
1.1. Lingvomadaniyatda konsept tushunchasi .....	8
1.2. Arab va o‘zbek temporal leksika haqida umumiy ma’lumot .....	9
<b>II. BOB. ARAB VA O‘ZBEK TILLARIDA DAVRIY VAQT TALQINI</b> .....	<b>21</b>
2.1. Davriy vaqt nomlarining arab va o‘zbek tilarida berilishi .....	21
2.2. Arab va o‘zbek frazeologik hamda paremiologik birliklarida “vaqt” konsepti .....	32

<b>XULOSA.....</b>	<b>40</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI...</b>	<b>42</b>

## **KIRISH**

**Mavzuning dolzarbligi.** Jahondagi har bir tilning o‘z tarixi, taqdiri, jamiyat hayotida tutgan o‘rni va mavqei mavjud. Jahon tillari o‘zining genetik jihati, tipologiyasi, ijtimoiy mohiyati, o‘tmishi, yozuv tarixi, unda so‘zlashuvchilarning umumiy miqdori kabi belgilari bilan o‘zaro farqlanadi. Ular ichida arab tili ham o‘zining juda qadim tarixga ega ekanligi, serqirra va ilmiy manbalarga boyligi bilan ajralib turadi.

Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov ta’kidlaganlaridek, “Hozirgi paytda xorijiy tillarni o‘rganish va o‘rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. ...Jahon hamjamiyatidan o‘ziga munosib o‘rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o‘z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo‘qdir”<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup>Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq, 1997. 185-bet.

Dunyodagi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar bilan aloqalar oʻrnatish, ular bilan siyosiy-iqtisodiy munosabatlarni olib borish chet tillarini puxta bilishni talab qiladi. Arab mamlakatlari bilan Oʻzbekiston oʻrtasidagi aloqalarni mustahkamlashda arab tilini yaxshi bilishimiz, unda ravon soʻzlay olishimiz darkor.

Mustaqil Oʻzbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan kun sayin rivojlanib va mustahkamlanib borayotgan siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari chet tillarni oʻrganishni hamda ulardan amaliy foydalana bilishni taqozo etmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan ilk paytlardan oq mamlakatimiz rahbariyati yurtimizda chet tillarni oʻrgatish ishiga katta eʼtibor qaratib kelmoqda. Jumladan, mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq birinchi prezidentimiz Islom Karimov taʼlimning turli bosqichlarida tahsil olayotgan yosh avlodga xorijiy tillarni oʻrgatishning zarurati va ahamiyatini taʼkidlab shunday degan edi: “Ularga chet tillarni mukammal bilib olishlari, erkin muloqot qilishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishimiz kerak. Bu bizning jahon miqyosiga chiqishimizda muhim omil boʻlib xizmat qiladi”<sup>2</sup>.

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlarga oid davlat siyosatini yanada takomillashtirish maqsadida shunday degan edilar: “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech ogʻishmasdan, qatʼiyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga koʻtaramiz.

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan yuksak intellektual va maʼnaviy salohiyatga ega boʻlib, dunyo miqyosida oʻz tengdoshlariga hech qaysi sohada boʻsh kelmaydigan insonlar boʻlib kamol topishi, baxtli boʻlishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”<sup>3</sup>.

Shunday bir sharoitda yurtimizda sharq tillari, jumladan, arab tilini oʻrganish, shuningdek, ushbu til borasida tadqiqotlar olib borish keng tus olib bormoqda. Aytib

---

<sup>2</sup>Karimov I.A. Asarlar. 4-jild. Bunyodkorlik yoʻlidan. – T.: Oʻzbekiston, 1996. 283-bet.

<sup>3</sup>Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: Oʻzbekiston, 2016.14-bet.

o‘tish lozimki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan to shu kunga qadar o‘zbek arabshunos olimlari va tadqiqotchilari tomonidan arab tili bo‘yicha ko‘pgina tadqiqotlar amalga oshirilib, bir necha arab tili darsliklari yaratildi. Bu esa yosh arabshunos olim-u, tadqiqotchilarga kelajakdagi ilmiy ishlarini amalga oshirishda muhim poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

**Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.** Zabardast sharq tillaridan biri va ushbu ilmiy ishimizning asosi bo‘lmish arab tilini ham ko‘pgina arab, rus, ingliz va o‘zbek tilshunos olimlari uning funksional xususiyatlariga ko‘ra turli vaqt konsepti hali olimlar tomonidan chuqur o‘rganib chiqilmagan. Bu bizning bitiruv malakaviy ishimizning ilmiy ahamyatini yanada oshiradi. Konseptning tadqiq qilinishi bo‘yicha juda ko‘p tilshunoslar ilmiy ishlar olib borib, ba‘zilari o‘xshash, ba‘zilari farqli qarashlarini bildirib kelishgan. Xususan, “vaqt” kosepti haqida gap ketganda arab tilshunosligida, shuningdek o‘zbek tilshunosligida ham “vaqt” konsepti lingvomadaniy jihatdan maqollar misolida keng tadqiq qilinmaganligini e‘tiborga olgan holda ishimizda arab va o‘zbek xalq maqollari misolida “vaqt” konseptini lingvomadaniy jihatdan talqin qilishga qaror qildik. Konsept tushunchasi va uning ilmiy ahamiyati borasida rus olimlaridan O.V.Pashkevich<sup>4</sup> va Z.D.Papova<sup>5</sup>, kognitiv tilshunoslikda konseptning rolini I.Y.Nikishina<sup>6</sup> o‘z tadqiqot ishlarida yoritib bergan. Z.G.Naberejnova<sup>7</sup>, E.A.Lukyanchenko<sup>8</sup> va S.A.Baruzdina<sup>9</sup> kabi tadqiqotchilar “vaqt” konseptining turli xil lingvomadaniy aspektlarda namoyon bo‘lish shartlarini izohlab o‘tadi. Shuningdek, T.K.Yelizova<sup>10</sup>, V.L .Temkina<sup>11</sup>, N.E.Gorelova<sup>12</sup>,

---

<sup>4</sup> Пашкевич О.В. Концепт, понятие, значение: проблема дифференциации.

<https://studylib.ru/doc/641258/pashkevich.-o.v-koncept-ponyatie--znachenie-problema>

<sup>5</sup> Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие концепта. Когнитивная лингвистика .

<https://groovedownloadfree.netlify.com/kognitivnaya-lingvistika-z-d-popova-i-a-stermin.html>

<sup>6</sup> Никишина И. Ю. Понятие «концепт» в когнитивной лингвистике. Лингвистика, 2001

<sup>7</sup> Набережнова З. Г. Категория времени как один из элементов языковой картины мира. – М , 2011.

<sup>8</sup> Лукьянченко Е.А. К вопросу выражения концепта времени в различных лингвокультурах. Научная жизнь.

<sup>9</sup> Баруздина С. А. Время как лингвокультурный концепт. – М.

[http://www.dissland.com/catalog/lingvokulturniy\\_kontsept\\_vremya\\_v\\_metaforicheskix\\_reprezentatsiyah\\_na\\_materiale\\_nemetskogo\\_yazika.html](http://www.dissland.com/catalog/lingvokulturniy_kontsept_vremya_v_metaforicheskix_reprezentatsiyah_na_materiale_nemetskogo_yazika.html)

<sup>10</sup> Елизова Т.К. Специфика научного концепта «время» в английском и русском языках. Филологические науки. Вопросы теории и практики. – М. № 7 (18) 2012, часть 1

O.V.Afanaseva<sup>13</sup> va S.G.Klyastorny singari olimlar rus, ingliz, arab, yapon hamda ispan tillaridagi “vaqt” konseptiga oid turli xil tasavvur va tushunchalarni o‘z ishlarida tahlil ostiga oladi. Bundan tashqari bir qator arab tilshunoslari vaqt bilan bog‘liq qadimgi qarashlar, metaforalar borasida ish olib boradi.

Demak, lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan “vaqt” konseptining tadqiqi masalasi e‘tiborga molik deb topilgan va bu borada bir qator ishlar amalga oshirilgan. Ularni o‘rganib chiqib, masalaning qanchalik qiziqarli ekaniga yana bir bor amin bo‘ldik.

**Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.** Arab va o‘zbek tillaridagi so‘zlar va paremiologik birliklar orqali “vaqt” konseptining ifodalanish xususyatlarini o‘rganish, qiyosiy tahlil etish ishimizning asosiy maqsadi bo‘lib, bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- konsept tushunchasini lingvomadaniy kategoriya sifatida tavsiflash va bu xususda fanda mavjud nazariy fikr va xulosalarni o‘rganish;
- “vaqt” konsepti bilan bog‘liq o‘zbek tilidagi so‘zlarni to‘plash;
- “vaqt” konsepti bilan bog‘liq arab tilidagi so‘zlarni to‘plash;
- Paremiologik birliklar va so‘zlarda “vaqt” konsepti bilan bog‘liq tasavvurlar ko‘lamini aniqlash va tahlil qilish.

**Tadqiqot ishining manbalari.** Tadqiqot ishini yoritish uchun manbalar sifatida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “AN-NAIM” lug‘ati, Sh. Usmanovanning “Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari” nomli kitobidan keng foydalanildi. Bundan tashqari internet saytlaridan olingan manbalarga tayanildi.

**Tadqiqot ishining metodi.** To‘plangan materiallardan kelib chiqib tadqiqotni o‘rganish mobaynida ma‘lumot to‘plash, tarjima, tahlil, tizimli yondashuv kabi metodlardan foydalanildi.

---

<sup>11</sup> Темкина В.Л., Ларионова И.А. Метафоризация концепта “время” в среднеанглийском и современном английском языке. – М , 2004

<sup>12</sup> Горелова Н.Е. Отношение ко времени в японской и русской лингвокультурах. – М , 2015

<sup>13</sup> Афанасьева О.В. Семантическая структура концепта «время» и ее отражение во фразеологических системах английского, испанского и русского языков. Автореферат дисс. канд. Филол. наук. Казань, 2007.

**Tadqiqot ishining obekti.** “Vaqt” konsepti bilan bog‘liq o‘zbek va arab tilidagi so‘zlar, atamalar, paremiologik birikmalar, xalq maqollari tadqiqotimizning obekti hisoblanadi.

**Tadqiqot predmeti.** Lingvomadaniyatda konsept tushunchasi va o‘zbek va arab tillaridagi so‘zlarda “vaqt” konseptining semantik strukturasi talqin qilish ishning predmetini tashkil qiladi.

**Ishning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan lingvomadaniyatdagi nazariya va metodlar asosida olib borildi. Ish natijalaridan arab tili, umumiy va qiyosiy tilshunoslik, lingvomadaniyat kurslarining ma’ruza va seminar mashg‘ulotlarida foydalanish mumkin.

**Tadqiqot ishining tuzilishi.** Bitiruv malakaviy ishimizning tuzilishi kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxatidan iborat.

Kirish qismi ishning dolzarbligi, mavzuning o‘rganilganlik darajasi, ishning maqsadi va vazifalari, manbasi, tadqiqot metodi, obekti, predmeti va ilmiy-amaliy ahamiyatini o‘z ichiga oladi.

Uning asosiy qismi ikki bobdan iborat bo‘lib, birinchi bob “Lingvomadaniyatda konsept tushunchasi” va “Arab va o‘zbek temporal leksika haqida umumiy ma’lumot” larni o‘z ichiga oladi.

Ikkinchi bob “Arab va o‘zbek tillarida davriy vaqt talqini” va “Arab va o‘zbek frazeologik va paremiologik birliklarida “vaqt” konsepti” ga bag‘ishlanib, manbalardan to‘plangan misollar asosida tahlilga tortildi.

Xulosada olib borilgan tahlil natijalariga ko‘ra yakuniy xulosalar chiqarildi.

Tadqiqot so‘ngida bitiruv malakaviy ishni bajarishda foydalanilgan adabiyotlar va manbalar ro‘yxati keltirildi.



## **I BOB. ARAB TILIDA VAQT KONSEPTINING NAZARIY ASPEKTLARI**

### **1.1 LINGVOMADANIYATDA KONSEPT TUSHUNCHASI**

XX-asrning 60-yillarida kognitiv tilshunoslik tilning semantik aspektiga o'z ta'sirini o'tkaza boshladi. Bu kompleks aspekt inson tili va mental (aqliy) faoliyatning o'zaro ta'siri, ya'ni inson tili va bilish faoliyatini o'rganuvchi fandır. Kognitiv tilshunoslikning asoschisi Amerikalik lingvist va psixolog Noam Xomskiy hisoblanadi. U bilish nazariyasiga ijodiy yondashadi va kognisiya tushunchasini quyidagi uch asosiy masalalar bilan bog'laydi:

1. Bilishning tabiati (bilish nimani ifodalaydi);
2. Inson ongida bilimlar sistemasining shakllanishi;
3. Bilimni ma'lumotlar banki shaklida kompyuterda va zamonaviy tadqiqot texnologiyalarida qo'llash.

Zamonaviy tilshunoslikda kognitiv tilshunoslik tilni tushuncha nuqtai nazaridan o'rganadigan sohasi hisoblanadi. Bu tushunchalar aniq bir tilda ba'zan universal, ba'zan maxsus holda bo'ladi. Shu xususiyati bilan semantikaga o'xshab ketadi, lekin psixolingvistikadan farq qiladi. Kognitiv tilshunoslik uchta asosiy holatni kuzatish bilan xarakterlanadi. Olimlarning aniqlashlaricha, kognitiv tilshunoslik ma'lumotlarni transformatsiyalash va kodlashda asosiy rol o'ynaydigan kognitiv mexanizm sifatida o'rganiladi. Zamonaviy kognitiv tilshunoslikning va lingvomadaniyatning asosiy atamalaridan biri bu - *konseptdir*. U insonning tafakkur xususiyatlari va qurilishiga bog'liq bo'lgan muammolar bilan qiziquvchilarning diqqatini o'ziga tortib kelmoqda. Kognitiv tilshunoslik – dunyoning lisoniy tasvirida muayyan konseptning mohiyati va dunyo voqeliklari bilan bog'liqligini o'rganuvchi fandır. Konsept esa kognitiv tilshunoslik fanining asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, madaniyat va inson o'rtasidagi aloqa o'rnatuvchi elementdir. Kognitiv tilshunoslikda konsept hayotiy obraz, til birligini anglatuvchidir. Konsept orqali aniq tilni semantik oralig'i tuziladi. Konsept tabiatini tushuntirish va anglash til orqali kechadi. Konseptning o'zi tahlilsiz sistema, ammo boshqa konseptlar ostida harakat qiladi.

Birinchi bor konsept atamasini rus fanida 1928-yilda S.A.Askoldov qo'llagan. Olim konseptni ko'pgina noaniq predmetlar, harakatlar, voqeliklar (rivojlanish konsepti, haqiqatgo'ylik, matematik konseptlar)ni fikrlash jarayonida o'rnini to'ldiruvchi tafakkur shakli deb izohlaydi. U konseptga “bu bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o'zida aks ettiradigan birlikdir”<sup>14</sup> deb izoh bergan.

Konsept tushunchasi deyarli barcha atoqli tilshunoslar tomonidan keng tadqiq qilinib, ularning har biri bu termin yoki tushunchani turlicha individual tarzda talqin qilishadi. Uni biron tushuncha haqida ideal, kulturologik shartli inson tasavvuridagi obraz (A.Vejbitskaya), mantiqiy kategoriya (Y.I.Stepanov), amaliy falsafadagi bir

---

<sup>14</sup> Аскольдов С.А. Концепт и слово [Текст] / С.А.Аскольдов // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М.:Academia, 1997. – С. 267–280

tushuncha (N.D.Aryutunova), ko'p qatlamli tushuncha (V.I.Krasik) deb va boshqa olimlar tomonidan ham turlicha talqin qilingan.

Yuqorida qayd etilgan S.A.Askoldov fikri Y.S.Stepanovanning bildirgan fikriga juda yaqin, "konsept bu madaniyat elementlaridan birining kishi tafakkurida shakllangan shaklidir, huddi shu shaklda madaniyat kishining mental dunyosiga kirib boradi."<sup>15</sup>

Yana bir rus tilshunosi V.A.Maslova konsept ma'nosiga ko'p qirrali tuzilma sifatida qarab, nafaqat til egalari tomonidan o'ylanadigan, balki ular o'zlari his qiladigan hayajon, baho, milliy obraz va konnatatsiyani o'z ichiga olishini ko'rsatadi va konsept tuzilishida o'zgacha nuqtai nazar borligini ta'kidlaydi. Konsept markazida qadrilik turishi, u madaniyat tadqiqiga xizmat qilishi, madaniyat asosida aynan qadrilik prinsipi yotadi. Har bir konsept murakkab mental uyg'unligi, ma'noviy tuzilishdan tashqari insonni ifodalanayotgan obektga munosabati va umuminsoniy yoki umumiy, milliy-madaniy, ijtimoiy, til egalariga tegishli, shaxsiy-individual komponentlarni o'z ichiga oladi,<sup>16</sup> deb ta'kidlaydi.

Konsept haqidagi turli qarashlarni tahlil qilar ekanlar, olimlar aniq bir xulosaga keldilar: konsept – bu abstrakt nomlar turi emas, xalq tomonidan asrlar mobaynida to'planib kelingan bilim va malakalarni, ularni o'rganib chiqishning asosiy rakursi. "Konsept"- atamasi tilshunoslikda ham yangi ham eski atama hisoblanadi. Hozirda tilshunoslikda konsept tushunchasiga juda katta e'tibor berilib kelinmoqda. XX asrning 70-yillarida an'anaviy tilshunoslikda konsept atamasi o'zgacha chuqur izohlar talab qiladigan muammo sifatida qaralardi. Konsept tushunchasidan to'la huquqli foydalanish 80-yillarda ingliz olimlari Cheyf, R.Jakendof, G.Lakof, R.Langaskerlarning asarlarini tarjima qilinishi bilan bog'liq. Aynan o'sha matnlarda odatda konseptualizatsiya, konseptual mohiyat atamalari uchrab turadi. Konsept

---

<sup>15</sup> Аскольдов С.А. Концепт и слово [Текст] / С.А.Аскольдов // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М.:Academia, 1997. – С. 267–280

<sup>16</sup> Маслова В.А. Лингвокультурология.. –М.: «Академия», 2001. – С. 208 .

tushunchasining lugʻaviy maʼnosi ustida ham koʻpgina olimlar har xil fikrlarni bildirishadi. Unga mantiqiy kategoriya, amaliy falsafa tushunchasi, milliy mentalitetning asosiy birligi sifatida qaraydiganlar ham bor. Kognitiv atamalar lugʻatida “konsept” atamasiga quyidagicha taʼrif beradi: Konsept - bizning tafakkurimizdagi aqliy va psixik resurslarining inson bilim va malakalarida aks etishiga xizmat qiladigan tushunchadir. “Konsept” atamasi zamonaviy tilshunoslikda u yoki bu leksik birlikning tafakkurdagi obrazini ifodalash uchun qoʻllaniladi. Kundalik ilmiy ijodda tez-tez konsept atamasi tushuncha bilan sinonim sifatida qoʻllaniladi. “Konsept”- lotincha “conceptus” soʻzidan olingan boʻlib, “tushuncha” maʼnosini bildiradi. Konsept tushunchalar yigʻindisidir. Biror predmet haqida aytilgan yoki bildirilgan har qanday fikrlar yigʻindisi ham konseptni tashkil etadi. Konsept tushunchasi soʻnggi oʻn yil ichida tilshunoslikda keng shakllangan.

Konseptning kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, shuningdek, adabiyotshunoslik fanlaridagi izohi oʻzaro farqlanadi. Ushbu termin tilshunoslikda oʻtgan asrning 80-yillariga qadar *tushuncha* soʻziga sinonim sifatida ishlatilgan boʻlsa, bugungi kunga kelib uning izohi *tushuncha* terminiga nisbatan kengayganini koʻrish mumkin. Binobarin, N.Y. Shvedova konseptni tushuncha ekanligini, bu tushuncha ortida esa ijtimoiy yoki subektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, oʻz tarixiy ildizlariga ega boʻlgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini taʼkidlagan.<sup>17</sup>

Lingvistikaning yangi yoʻnalishi – lingvomadaniyat til va madaniyat oʻrtasidagi bogʻliqlikni oʻrganadi. Bu yoʻnalishning oʻzining shunday kategorial apparati mavjudki, uning markaziy obekti konsept tushunchasi boʻlib hisoblanadi.

Professor N.Mahmudov lingvokulturologiyada (lingvomadaniyat) konseptning oʻrganilishi xususida shunday yozadi: “Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta eʼtibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunoslikda bu yoʻnalish

---

<sup>17</sup> Шведова Н.Ю. Избранные работы. –М.: Языки славянской культуры, 2005. С. - 640

nihoyatda keng tarqalganini ko‘rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog‘iga yetish mushkul. Hatto so‘nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta qismi aynan u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag‘ishlangan”.<sup>18</sup>

Demak, konsept lingvomadaniyatda eng faol qo‘llanuvchi birlik sanaladi. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini ifodalaydi. Masalan, *uy* konsepti o‘zbek kishilarining tafakkurida quyidagicha assotsiatsiyalanadi:

- a) yashash joyi – bino – ko‘p qavatli uy – hovli – xonadon – oila;
- b) katta, kichik, chiroyli, shinam, yorug‘, yangi, eski;
- v) mehribonlik uyi, dam olish uyi, madaniyat uyi.

Ko‘chma ma‘noli birliklarni yuzaga chiqaradi: *uy ichi* “oila a‘zolari”, *uyi buzilmoq* “yer-xotinning ajralishi”, “yeri o‘lmoq” (Buxoroda), *uyi kuymoq* “xonavayron bo‘lmoq”, “oila a‘zolaridan kimdir o‘lmoq” (Qashqadaryoda). Lingvomadaniy konsept etnomadaniy xususiyatga ega bo‘lgan va borliq haqidagi funksional ahamiyatga molik informatsiyani uzatadigan madaniyatning asosiy birligidir. U madaniy universalialarni ifodalaydi. Lingvomadaniy konsept tafakkurda mavjud bo‘ladi, u o‘zida kognitiv-ratsional va emotsional-psixologik mazmuni biriktiradi.

Lingvomadaniy konsept barcha til egalari uchun dunyoqarash modeli vazifasini o‘taydi. Lingvomadaniy konsept milliy xarakterning shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi madaniyat vositasi hisoblanadi. Lingvomadaniyatda madaniyat konseptlari alohida tadqiq etiladi. Madaniyatning asosiy konseptlari jamoaviy til ongida muhim ahamiyat kasb etadi. Madaniyatning asosiy konseptlari deganda mavhum otlar, xususan, vijdon, taqdir, qismat, iroda, gunoh, qonun, erkinlik, ziyolilar, vatan va h.k. tushuniladi. Madaniyat konseptlarini A.Y. Gurevich ikki guruhga: “fazoviy”, falsafiy

---

<sup>18</sup> Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. –Т.: 2012. -№ 5. 3-16 бетлар.

kategoriyalar, ya'ni madaniyatning universal kategoriyalari (vaqt, makon, sabab, o'zgarish, harakat) hamda ijtimoiy kategoriyalar, ya'ni madaniyat kategoriyalari (erkinlik, huquq, haqiqat, mehnat, boylik, mulk)ga ajratadi.<sup>19</sup>

V.A.Maslova bunga yana bir guruhni – milliy madaniyat kategoriyasini ham ilova qiladi. Konseptlarni tahlil qilish jarayonida har qanday tilda madaniy o'ziga xos konseptlarning ko'pligi aniqlangan. Masalan, *kartoshka* konsepti madaniy o'ziga xos konseptlardan biri hisoblanadi. Kartoshka ruslar uchun nochor ovqatlanish etaloni, buni *sidet na odnoy kartoshke* frazeologizmi misolida ham ko'rish mumkin; beloruslar uchun odatiy milliy taom, ikkinchi non, muhim ozuqa hisoblanadi. Yoki *non* konseptini olsak, o'zbeklar uchun non muhim ozuqa etaloni hisoblansa, koreys, yapon, xitoy xalqlari uchun muhim ozuqa hisoblanmaydi. Ular uchun *guruch* asosiy ozuqa etaloni sanaladi.<sup>20</sup>

Tushuncha – mental tuzilma, u aqliy faoliyatning o'ziga xos shakli (tur) dir. Tushuncha qandaydir bir sinfga kiruvchi predmetlarni umumlashtirish va ushbu sinfni unga kiruvchi predmetlarning umumiy va farqlovchi belgilari majmuasiga nisbatan ajratuvchi mantiqiy faoliyat natijasida hosil bo'ladi. Mantiqiy faoliyat hosilasi bo'lgan "tushuncha" va kognitiv tilshunoslikda keng miqyosda qo'llanilayotgan "konsept" atamaları ham tafakkur birligi sifatida nomoyon bo'ladi. Bularning ikkisining ham boshlang'ich nuqtasi voqe'likdagi predmet-hodisaning his qilinishi va obrazli tasavvur qilinishi bilan bog'liq. Paydo bo'lgan hissiy obraz, dastlab, har bir shaxsda alohida, individual ko'rinishda bo'ladi. Masalan, "gul" bir kishi uchun "atirgul" bo'lsa, boshqa biror kishi uchun esa "rayhon".

Hissiyot va tafakkur faoliyatining yuqori bosqichlarida individual obraz aniq predmetdan uzoqlashib boradi va asl mantiqiy "aqliy" hodisaga aylanadi. Voqe'likning bunday his va tafakkur etilishi, umumlashgan va qisman mavhumlashgan obrazning yuzaga kelishi barcha uchun bir xil kod-ramziy belgi hosil

---

<sup>19</sup> А.Я. Гуревич Дискурс и личность: эволюция коммуникативной компетенции. –М.: Лабиринт, 2004. -С.320 .

<sup>20</sup> Маслова В.А. Лингвокультурология.–М.: «Академия», 2001. - С.208

bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu xilda paydo bo'ladigan mantiqiy tuzilmani psixolog N.I. Jinkin "universal predmet kodi -UPK" deb atashni taklif qiladi. Olim bu hodisaning yuzaga kelishini inson miyasining irsiy va nasliy xususiyatlari qatoriga kiritadi. Uning fikricha aqliy qobiliyat tushuncha, hukmni yaratadi, voqe'likni tasvirlash va inson faoliyati sababini ko'rsatish uchun turli xulosa va mulohazalarga keladi. Bu mantiqiy harakatlarning bajarilishi shaxsning qaysi til sohibi ekanligiga bog'liq emas. Xuddi shuning uchun ham intellekt (aql) umumiy boshqaruv funksiyasini ijro etadi, bu universal predmet kodi ko'rinishidagi kodlashtirishdir.<sup>21</sup> Shunday qilib, tushuncha va hukmning hosil bo'lishi aqliy faoliyatning turli bosqichlariga oiddir. Ko'pchilik hukmning birlamchi ekanligini e'tirof etishadi. Ko'pchilik, haqiqatdan ham, mantiqiy subyekt va predikat birikishidan hosil bo'ladigan har qanday oddiy hukm (Masalan: qor yog'moqda) predmet obrazlarining o'zaro munosabatdaligi, bog'lanishdan boshqa hech narsa emas. Konsept ham tafakkur birligi va uning asosida tushuncha, obraz va lisoniy ma'no umumlashmasi yotadi. Konseptning shakllanishi individual obraz tug'ilishidan boshlanib, lisoniy birlikning paydo bo'lishi bilan tugaydi. Taniqli faylasuf va vazifasini inson tomonidan tilni o'zlashtirish mexanizmlari hamda bu mexanizmlarning tarkibini "sistemaviy tasvirlash va tushuntirishdan iborat" deb ta'riflashi bundan guvohlik beradi. Haqiqatdan, kognitiv tahlilda olamni bilish jarayonida yuzaga keladigan mantiqiy (mental) strukturalarning lisoniy ifoda topishini ta'minlovchi mexanizmlar qamrovidagi uslub va vositalar tadqiqi asosiy o'ringa ko'chadi. Voqe'likdagi predmet va hodisalarni bilish, idrok qilish qator mantiqiy ruhiy xarakatlarni o'z ichiga olgan mantiqiy faoliyatdir. Bu faoliyatning dastlabki bosqichini, albatta, ma'lum bir obyektни boshqa obyektlar qatoridan ajratish harakati tashkil qiladi. Bir obyektни boshqasidan ajratish uchun uning farqlovchi belgilarini topishni lozim, keyingi bosqichda esa farqlovchi belgilarining chog'ishtirilishi asosida obyektning hissiy ramzi yuzaga keladi.

---

<sup>21</sup> Н.И. Жинкин. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка.. М.: Флинта,Наука, 2010. – С. 224

Konseptlar inson ongida shakllanadigan turli kategoriyalarning asosini tashkil qiladi, ular uchun tayanch nuqta bo‘lib xizmat qiladi. Odatda, konseptning umumiy xususiyatlari sifatida uning ichki tuzilishijihatidan aniq tuzilishga ega emasligi qayd qilinadi. Biroq bu qayd unchalik haqiqatga ega emas. Zero, konseptning asosini tashkil qiluvchi predmet obrazi yetarlicha aniq va ikkilamchi o‘rinni egallagan bo‘laklari mavhumlikka ega bo‘lishi bilan birgalikda, ular yagona negiz (yadroviy asos) atrofida o‘zaro munosabatga kirishib birikadilar. Shu sababli, konsept tarkibining tizimiy xususiyatlari tuzulish jihatdan murakkab tartibli bo‘lishida va bir butun mental tuzilma sifatida idrok qilinishida nomoyon bo‘ladi. Amerikalik kognitivistlar konseptual semantikaning keyingi rivojida tilshunoslikdagi umumnazariy qarashlarga yangicha yondashishni taklif qildilar va bu qarashlar ma’noni chuqurroq anglashga imkon beradi. Agar ma’no “konsept” shaklida tushuntirilsa, “konsept” inson tafakkuridagi bilimlar bilan bir hil joylashgan bo‘lishi mumkin.

Tilshunoslikda konsept lingvokognitiv va lingvomadaniy hodisa sifatida qaraladi. Kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyat fanlarining asosiy mavzusi konsept bo‘lib, u tafakkur birligi sifatida millatning ma’naviy qadriyatlarini aks ettiradi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinib turibdiki, konsept <sup>22</sup>lisoniy birliklar (so‘z, gap, matn) orqali yuzaga chiquvchi fikrlash jarayonining natijasidir. Konsept bizning psixikamizda aks etuvchi obektiv borliq, predmet va hodisalar haqida ma’lumot, tushuncha, tasavvurlarni o‘zida tashishi, saqlashi, o‘zgaga yetkazib berishi bilan jamiyat a’zolarining predmet va hodisalarga bo‘lgan munosabatini qayd etishi bilan o‘ziga xosdir.

Konsept – bir millatga tegishli bo‘lgan hayotiy tajriba natijalarini o‘zida namoyon qilgan bilimlar va tasavvurlar yig‘indisi, inson ongidagi hayotga, borliqqa

---

<sup>22</sup> Usmanova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari.- T.: TDSHI, 2017. 65-89 betlar.



boʻlgan munosabati, bir millatning nimadir haqida oʻy-fikrlari, qarashlarini oʻzida mujassamlashtirgan termin. Shu bilan bir qatorda konsept xotiraning operativ birligi boʻlib, fikriy, lisoniy, konseptual tizimlar va ong tili, borliq bilimlarni oʻz ichiga oladi.

Turli tilshunoslarning ilmiy ishlarini solishtirish natijasida koʻplab xususiy xulosalar qabul qilindi. Konsept tushunchasining tilshunoslikda qabul qilinganligi madaniyat, ong, tafakkur va til birligining asosiy oʻziga xosliklarini aniqlashda, lingvistikaning kulturologiya, falsafa va kognitologiya aspektlari uchun yangi bosqich boʻlib xizmat qildi.

Yuqorida aytib oʻtganimizdek, lingvistik adabiyotlarda “konsept” tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud, shu sababli ham bu termin haqida juda koʻp izohlar mavjud, turli yondashuvlar natijasida esa konseptning tasniflari ham turlicha aniqlanadi.

Masalan, oʻz mazmuni va mavhumlik darajasiga koʻra rus tilshunosi A.P.Babushkin konseptni quyidagi turlarga tasniflab chiqqan:

- 1) konkret obraz;
- 2) sxema;
- 3) tushuncha;
- 4) prototip;
- 5) freym;
- 6) senariy(skript);
- 7) geshtalt.<sup>23</sup>

Konkret obraz-bu tasavvur yoki tafakkurdagi konkret predmet yoki voqelikning aks etishi.

Mavhumlik darajasi yuqoriroq boʻlgan konsept turi tasavvur (fikrlar kartinkasi) - turli predmet yoki voqeliklarning umumlashtirilgan obrazlari. Tasavvur konseptning koʻproq tashqi belgilariga asosan aks ettirgan turi hisoblanadi.

---

<sup>23</sup> Бабушкин А.Р. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. Воронеж, 1996. – С.54-55

Sxema-umumlashgan makon - grafik obrazlari haqidagi tasavvurlar («daryo» ko‘k lentaga qiyoslanadi).

Konsept o‘zining aniq strukturasi ega. Tadqiqotchilar strukturaning murakkabligi, konseptning ko‘p qatlamli ekanligiga diqqat qilib, ular umuman olib qaraganda, ongli konstruktini tashkil qilishini aniqlashdi. Struktura konsept haqidagi ma’lumotni qayta shakllantirishga imkon beradi. Strukturasi ko‘ra konseptlar ham turlicha bo‘lganidek, ularning aniq klassifikatsiyasini ishlab chiqish tilshunoslari uchun haligacha yechim talab qiladigan muammoligicha qolmoqda.

Yana bir tilshunos I.A.Sternin esa uch turdagi konseptlarni ajratib ko‘rsatgan: bir bosqichli – faqat bazali qatlamni o‘z ichiga oladi; ko‘p bosqichli: turli bosqichli bir necha kognitiv qatlamlarni o‘z ichiga oladi; segmentli: bazali qatlamdan iborat bo‘lib, abstraktlik darajasiga ko‘ra bir xil hajmli segmentlardan tarkib topgan bo‘ladi.<sup>24</sup>

Y.S.Stepanov o‘z navbatida konseptning tushunchali elementida quyidagi qatlam va komponentlarni alohida ko‘rsatib o‘tadi: birinchi qatlam o‘zida muhim belgini aks ettiradi, ikkinchi qatlam bitta yoki bir nechta qo‘shimcha belgilarni, passiv belgilarni, uchinchi qatlam esa o‘zida konseptning ichki shaklini o‘zida aks ettiradi.<sup>25</sup>

G.G.Slishkin tomonidan taklif qilingan konseptlar tipologiyasida konseptning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan qadriyatlarga asoslangan elementi haqida yaxshi ma’lumotlar berilgan. U bu borada quyidagi tasnifni kiritgan:

- individual (personal, muallif tomonidan ishlangan);
- mikrogruplangan (masalan, oila, do‘stlarga tegishli);
- makrogruplangan (sotsial, rolga asoslangan, statusga asoslangan);
- etnik, umuminsoniy qadriyatlar<sup>26</sup>

---

<sup>24</sup> Sternin I.A. Методика исследования структуры концепта //Методологические проблемы современной лингвистики. Воронеж , 2001. – С.59

<sup>25</sup> Степанов Ю.С. Французская стилистика. –М.: «Высшая школа» 1965. – С. 120.

<sup>26</sup> Слишкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании «дискурсе». М.: Азбуковник, 2000. – С.56

Olim ishlab chiqqan bu tasnifdagi omillar oppozitsion metod orqali tahlil qilinadi. Bu kriteriya boʻyicha quyidagi konseptlar borligi aniqlandi:

Individual;

Mikroguruhlangan;

Makroguruhlangan;

Milliy;

Sivilizatsion;

Umuminsoniy;

Konsept tuzilishini oʻrganishda boshqacha qarashlar ham mavjud. Masalan, buni Y.S.Stepanov <sup>27</sup>ishlarida kuzatamiz. U bir tomondan, konsept tuzilishida hamma turgʻun tushunchalarni ajratadi, boshqa tomondan konseptni madaniyat asosiga aylantiradigan ichki tuzilish-yetimologiyasini koʻrsatadi.

Z.D.Papova va I.A.Sternin esa konsept tuzilishini uch xil komponenti: obraz, maʼlumotlar saqlovchisi, tahlil maydoni haqida gapiradi. Konseptda obrazni mavjudligi umumiy predmet kodini xarakterlash bilan tushuntiriladi. Maʼlumot saqlashda esa konsept alohida kognitiv belgilarni kiritadi, predmet yoki holatni asosiy xususiyatlarini aniqlashtiradi. Tahlil maydoni u yoki bu aspektda maʼlumotlar orqali konseptni tahlil qilib, undan xulosaviy bilimlar oladi yoki unga baho beradi.

Olimlar fikricha, konseptni maʼno va tuzilishidan tashqari xususiyatlari ham mavjud. Konseptni barcha qabul qilgan xususiyati koʻp maʼnoligi. Uning bu xususiyati uch pogʻonada koʻrinadi. Ular quyidagilar:

1. Sistemada simvol madaniyat tashuvchisi, madaniyatda leksikografiyadan yozib olingan lingvistik holat saqlovchisi;
2. Til vositasida madaniyat saqlovchisi;
3. Matnda namoyon boʻluvchi<sup>28</sup>

---

<sup>27</sup> Степанов Ю.С. Французская стилистика. –М.: «Высшая школа» 1965. –С. 120.

<sup>28</sup> Стернин И.А., Быкова Г.В. Концепты и лакуны // Языковое сознание: формирование и функционирование. – М., 1998. –С. 55-56.

Tilshunos Y.S.Stepanov fikricha, konsept inson ongidagi madaniyat bo‘lagi, bunday holatda konsept insoniyat olamini mental birligi bo‘lib madaniyatga kirgan. Konsept oddiy inson qiyofasida madaniy qadriyat yaratadi va madaniyatga kirib, ba’zi vaqtda madaniyatga ta’sir ko‘rsatadi.<sup>29</sup> Shu qarashlarga N.D.Artyunova tomonidan aniqlik kiritilgan. Olimani fikricha, konsept bir qancha faktorlarni o‘zaro aloqa natijasi: folklor, milliy urf-odatlar, din, hayotiy tajriba, obraz, qadrilik tuyg‘usi. Konsept o‘ziga xos madaniy qatlam, inson va olam o‘rtasidagi aloqa tasviri. U falsafadagi amaliy tushuncha bo‘lib, milliy an’ana, hayotiy tajriba, din, ideologiya, folklor, san’at obrazlari kabi ko‘plab faktorlar va fikrlash jarayoni o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi. Konsept “inson va dunyo o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatadigan madaniy qatlamni” o‘zida namoyon qiladi.<sup>30</sup>

Tilshunos S.G.Vorkachev<sup>31</sup> bu tushunchani “Konsept –tildagi o‘z ifodasi va lingvokulturologik spetsifikasiga ega tushuncha, tasavvur va bilimlar to‘plamidir” deydi.

Umuman olganda, konsept tushunchasi tilshunosligi til, ong va madaniyatning o‘zaro ta’sirining yo‘llari, naqshlari va xususiyatlarini tushunishning yangi bosqichini belgilab berdi va shuning uchun tilshunoslik, bilish fani, madaniy tadqiqotlar, psixologiya, falsafaning o‘zaro ta’sirining yangi qirralarini ochib berdi; lingvistik hodisalarni mazmunli tahlil qilish ko‘lamini kengaytirdi va semantik tadqiqotlar uchun yanada chuqurroq va samarali bo‘ldi.

Oxirgi vaqtlarda O‘zbekistonda konseptni o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlar soni o‘sib bormoqda. Zamonaviy tilshunoslikda konsept tabiatini tadqiq qilish birinchi darajali muhim rol o‘ynaydi. Masala shundaki, konsept tushunchasi mavjud, ammo, hozirgi davrda o‘z tadqiqini kutib yotgan muammolar bisyor.

---

<sup>29</sup> Степанов Ю.С. Французская стилистика. –М.: «Высшая школа» 1965. –С. 120.

<sup>30</sup> Артёнова Н. Д. Язык о языке, сборник статей. – М., 2013. – С. 86.

<sup>31</sup> Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: Становление антропологической парадигмы языкознания // Филологические науки. – М.:– 2001. – №1. – С. 64–72.

Mazkur ilmiy tadqiqot ishda “vaqt” konseptining semantik xususiyatlari, konseptning turli nuqtai nazarlardan o‘zbek va arab tillarida aks etishi, konseptning mohiyati tegishli rejalar, ilmiy materiallar, amaliy materiallar uchun manba sifatida xalq maqollaridan foydalanilgan holda tadqiq va tahlil qilindi

## 1.2. Arab va o‘zbek temporal leksika haqida umumiy ma’lumot

Arab tilida “zamon, davr vaqti”, “vaqt, payt, on”, “mavsum, payt” ma’nolarida asosan *وَقْتُ* ko‘p. *أوقات* so‘zi ishlatiladi<sup>32</sup>. Masalan: *وقت أوربا الوسطي* o‘rta Ovrupo vaqti, *وقت اضافي*, *وقت sport*. qo‘shimcha vaqt, *في أوقات العمل* yoki *في اوقات الدوام* ish, xizmat vaqtida, *صاف الوقت* vaqt o‘tkazmoq, *كان الوقت صباحا* tong payti edi.

“Vaqt” tushunchasi mantiqiy va lingvistik jihatdan voqea-hodisaning kechgan zamoni hamda vaqt o‘lchovlarini bildiradi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida vaqtga quyidagicha ta’rif berilgan.

VAQT (a. *وقت*, - zamon, vaqt muddati; on; mavsum) 1.Yuz berib turuvchi voqea-hodisa, narsalarning asrlar, yillar, soatlar, minutlar va shu kabilar bilan o‘lchanadigan davomiyligi, shunday o‘lchov belgisiga ega bo‘lgan obyektiv hodisa.<sup>33</sup>*Vaqt g‘oyat imillab o‘tardi. Hamma xavotirlanib bezovta bo‘la boshladi. K. Yashin, Hamza. Lekin vaqt o‘z ishini qildi — oyni g‘arb ufqidan tortib kirib ketdi. Demak, tong otdi. M. Ismoilov, Farg‘ona tong otguncha*

2. Shu obyektiv hodisaning minut, soat, kun, yil va shu kabilar bilan almashinuvidagi oralig‘i, qismi, bo‘lagi. *Bayramlardagina kiyadigan, boshqa vaqtlarda chamadonida avaylab saqlaydigan oq surp ko‘ylagini kiydi.S. Karomatov. Oltin qum.*

3. Soat, kun, oy, yil va shu kabilarning uzluksiz va izchil almashinuvida biror maqsad uchun belgilangan yoki biror maqsad uchun foydalanishi mumkin bo‘lgan

<sup>32</sup> Ан-На’им. Арабча-ўзбекча луғат. – Т.: “Халқ мероси нашриёти”, 2003. 926-927 бетлар.

<sup>33</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006 - 2008. 448 – 449 бетлар

muddat oralig‘i; fursat. *Vaqtни qo‘ldan bermoq. Vaqtdan yutmoq. Vaqtdan to‘g‘ri foydalanmoq. Vaqting ketdi — baxting ketdi.* Maqol.

4. Vaqtning biror narsa, ish-mashg‘ulot uchun belgilangan, ajratilgan bo‘lagi; muddat. *Masalani to‘g‘ri yechdi-yu, oqqa ko‘chirayotganida, vaqti tugab qoldi.* O‘. Hoshimov, *Qalbingga quloq sol. Tanaffus vaqtida hamma mukofotlanganlarni, mukofotlanganlar esa bir-birlarini tabriklab, zal va foyelar g‘ovur bo‘lib ketdi.* A. Qahhor, *Qo‘shchinor chiroqlari.*

5. O‘tuvchi vaqtning ma‘lum ijtimoiy hodisa, holatlar bilan bog‘liq, ular bilan kechgan bo‘lagi; zamon, davr. *Quldorlik vaqtida. Mo‘g‘ullar hukmronligi vaqtida.*

6. Obyektiv tarzda kechuvchi zamon, davrning, kishi hayotining ma‘lum, aniq bir bo‘lagi, nuqtasi, oralig‘i. *Vaqt kech bo‘lib qoldi. Bolalik vaqti. Yoshlik vaqti. Yoz vaqti. Namoz vaqti. // Ertalab Qo‘qondan chiqsa, asr vaqtlarida Marg‘ilonga kiradir.* A. Qodiriy, *O‘tgan kunlar.*

7. *fls.* Borliqning, makon kabi, obyektiv real shakli, materiyaning yashash shakllaridan biri. *Nisbiylik nazariyasi-materiya mavjud bo‘ladigan fazo va vaqt nazariyasidir.* “Fan va turmush”.<sup>34</sup>

Endi arab tilida vaqt bilan bog‘liq ish-harakatni belgilovchi fe‘llarga e‘tibor beradigan bo‘lsak, ular quyidagilar.

I وَقَّتَ (u) وَقْتُ vaqt belgilamoq; II وَقَّتَ 1) vaqtни aniqlamoq, belgilamoq; 2) vaqtни taqsimlamoq; 3) vaqtни tayinlamoq; IV تَوَاقَّتُ bir vaqtning o‘zida bo‘lib o‘tmoq.<sup>35</sup>

Mazkur o‘zakdan “vaqt” tushunchasi bilan bog‘liq bir qator so‘zlar yasaladi. E‘tibor beraylik:

- اَوَيْقَةٌ ko‘p. ات - vaqt so‘zining kichraytirilgani, vaqtcha

- تَوَقَّيْتُ 1) vaqtни hisoblash, hisoblab chiqish, aniqlash; في الساعة العاشرة من وقت - *Qohira vaqti bilan* الوقت - *Madina vaqti bilan soat o‘nda,* في القاهرة - *المدينة المنورة*

<sup>34</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. - Т.:“Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006 - 2008. 448 – 449 бетлар

<sup>35</sup> Ан-На’им. Арабча-ўзбекча луғат.- Т.: “Халқ мероси” нашриёти, 2003. 926-927 бетлар.

القوت المحلي vaqtning arabiy o‘lchovi; الوقت الافرنجي vaqtning ovrupocha o‘lchovi; العربية  
- mahalliy vaqt; - وقت الصلوات namoz (ibodat) vaqti jadvali; 2) vaqt xizmati علامات الوقت  
gram.tinish belgilari.

متواقتٌ - sinxron ravishda bo‘lib o‘ladigan;

- موقت ko‘p. موافت belgilangan vaqt;

- موقتٌ shuningdek, 1) ma‘lum vaqtga belgilangan mo‘ljallangan; 2) muvaqqat, qisqa vaqt ichida bo‘ladigan, vaqtincha; حكومة موقتة muvaqqat hukumat, موقتة بصورة yoki موقتا vaqtincha, muvaqqat.

- موقتٌ 1) yetakchi, asosiy xronometraj (vaqtni aniq o‘lchash); 2) ishni aniq, o‘z vaqtida puxta bajaradigan; xronometraj qiluvchi, vaqt o‘lchovchi.

- موقت 1) ma‘lum vaqtga belgilangan, vaqti (muddati) cheklangan; vaqtincha, muvaqqat; قنبلة موقتة belgilangan vaqti kelib portlaydigan bomba; soat mexanizmi o‘rnatilgan bomba; 2) vaqtga bog‘liq bo‘lgan, vaqt bilan belgilanadigan; muayyan vaqtda farz bo‘lgan

- موقتات ko‘p. موافيت 1) muddat, ma‘lum belgilab qo‘yilgan vaqt; 2) mavsum, palla, vaqt, muddat; ko‘p jadval: 3) haj va umra ziyoratiga kelgan kishilarning ehrom bog‘laydigan joyi

ميفاتي - xronometraj qiluvchi, vaqt o‘lchovchi.

وقتي - vaqtincha, qisqa vaqtdagi, muvaqqat, omonat, o‘tkinchi; وقتيا vaqtincha, vaqtinchalik.

Arab tilida esa “vaqt” tushunchasi bilan bog‘liq quyidagi leksik birliklarni qo‘rib chiqamiz.

دهر ko‘p. دهور, 1) dahr, davr, zamon, asr; geol. davr; دهر الانسان inson asri; دهر الاول paleozoy davri<sup>36</sup>.

دهر uzoq davom etadigan; الدهر الداهر qadimdan, azaldan, ko‘pdan beri, ro‘zi azaldan.

دهري asrga(davrga) oid.

<sup>36</sup> Ан-На’им. Арабча-ўзбекча луғат. –Т.: “Халқ мероси” нашриёти, 2003. 272-273-бет.

دهري juda eski, azaliy, qadimiy, qadimgi; العالمدهري uzundan-uzoq.

O‘zbek tilida dahr so‘zi hoirgi davrda nutqda qo‘llanilmaydi. U adabiyotda “zamon, davr” ma’nolarida qo‘llanilishi mumkin. *Dahrning baqosiz va vafosiz ekanini aytadi, uning kajraftorligidan noliydi.* “O‘TA”. Bu so‘z ko‘chma ma’noda “olam, dunyo, jahon” ma’nolarida ham qo‘llanilishi mumkin. *Dahr ishidin silkkan etak, Ikki qo‘lda ikki suyak.* Mirtemir.<sup>37</sup>

Arab tilida حين ko‘p. احيان so‘zi ham “vaqt, payt, chog‘”, “qulay fursat”, “muddat” kabi ma’nolarni anglatadi va turli so‘z va yuklamalar bilan vaqt mazmuniga bog‘liq ma’nolarni beradi<sup>38</sup>. Masalan, باخر و بين حين ba‘zan, ba‘zida; من حين الي حين ahyon-ahyonda; بعد حيننا yoki حين و حينين goh-goh; حيننا ba‘zan; حين ان ... في yoki حين ان ... gan paytda va boshqalar.

Bu so‘z حان (i) “yetib kelmoq, yaqinlashmoq (vaqt)” fe’lidan yasalgan. حانت صلات المغرب shom namozi vaqti bo‘ldi.

Payt so‘ziga o‘zbek tilining izohli lug‘atida quyidagicha ta’rif berilgan.

PAYT 1. Muayyan vaqt, fursat, on. *Tush payti. O‘q otilgan payt.* - Elmurod .. *hovliga qarab yurdi. Shu payt Fotimaning shovqinlab gapirgani eshitildi.* P. Tursun, O‘qituvchi.

2. Muayyan sharoit bilan bog‘liq bo‘lgan davr, zamon. Zargarov: *Jonim! Payt nozik, xotin-qizlar masalasi chirsillab turibdi — bekorga nobud bo‘lib ketaman.* A. Qahhor, Og‘riq tishlar.

3. Biror ishni amalga oshirish uchun qulay fursat, imkoniyat. *Paytni qo‘ldan bermoq. Payti kelganda aytmoq.* - *Paytdan foydalangan Ashir mahram avvaldan tayyorlab qo‘yilgan tilxat va arizalarni yosh xo‘janing oldiga qo‘ydi.* J. Sharipov, Xorazm.; *Men payt poylab, qochishni mo‘ljallab borardim.* H. Axmar, Kim haq?.

Mazkur o‘zakdan yasalgan fe’llarning hosila boblari ham vaqt bilan bog‘liq ish-harakatni bildiradi.

<sup>37</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. - Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006 - 2008. 214 – 215 бетлар

<sup>38</sup> Ан-На’им. Арабча-ўзбекча луғат.- Т.: “Халқ мероси” нашриёти, 2003. 212 - бет.



II حين vaqt belgilamoq, vaqt tayin qilmoq; IV احين ; بالمكانحين bir yerda bir oz muddat istiqomat qilmoq; V تحين (qulay fursatni, imkoniyatni) kutib turmoq; X استحان yoki استحين = V

Mazkur o‘zakdan yasalgan vaqt tushunchasi bilan bog‘liq quyidagi leksik birliklarni ko‘rishimiz mumkin.

- احين ko‘p. (حيان dan) vaqtlar, paytlar, احيان كثيرة tez-tez, - bir necha martalab, احيان في بعض الاحيان ba‘zan, goho, gohida, goh-gohda;
- تحين (qulay fursatni, imkoniyatni) kutish.

Arab tilida IV bob اُزمن “(qayerdadadir) uzoq vaqt qolib ketmoq” , “uzoq davom etmoq, surunkali bo‘lmoq (kasallik haqida)” fe‘li ham vaqt bilan bog‘liq ma‘noni anglatadi. Bu fe‘l o‘zagidan bir qator so‘zlar yasaladi.

زمان - ko‘p. (ازمنة 1) zamon vaqt, davr; الي زمان قريب yaqin vaqtgacha, yaqingacha; من زمان allaqachon; من غير الزمان allaqachonlardan beri, hamma davrlarda, doimo; اهل زمانه kimningdir zamondoshlari ; 2)mavsum, fasl, davr, sezon; 3) gram. zamon;

زمانى 1) vaqtincha; 2) bu dunyoga oid;

زمانية payt (zamon) kelishini kutish;

زمان ko‘p. (ازمنة 1) zamon, vaqt; 2) gram. zamon;<sup>39</sup>

زمانة vaqt orasi, fursat, vaqt ichi, vaqt qismi;

زمانى 1) vaqt(payt) da chegaralangan, vaqtincha, muvaqqat; زمانية قبله belgilangan vaqtda portlaydigan bomba; 2)xronologiyaga oid, xronologik (hodisa-voqealarning vaqt jihatdan ketma-ketligi);

مزمّن uzoq vaqt (surunkali ) davom etadigan.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida esa zamon so‘ziga quyidagicha ta’rif berilgan:

ZAMON 1. fls. Obyektiv borliqning, materiyaning harakat bilan uzviy bog‘langan holda uzluksiz va izchil davom etadigan formasi; vaqt - makon va zamon materiyaning obyektiv yashash formalaridir.

<sup>39</sup> Ан-На’им Арабча-ўзбекча луғат. Т.; “Халқ мероси” нашриёти. , 2003. 346 бет.

2. Biror xarakterli hodisa, tarixiy voqea yuz bergan yoki biror hokim sinf, tabaqa hukmronlik qilgan davrni o‘z ichiga olgan muayyan vaqt; davr. *Tinchlik zamon.* *Urush zamon.* *Amir zamon.*

3. So‘z borayotgan paytda kechirilayotgan davr va uning tartib-qoidalari. *Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq.* Maqol. *San zamoni tushunasanni, o‘ylab qara.* Oybek, Qutlug‘ qon.

4. Umuman vaqt, davr, payt, kez, mahal. *Burungi zamon.* *Hozirgi zamon.* *Hasanalining Otabeklar oilasida bo‘lganiga ellik yillar chamasi zamon o‘tib, endi Otabeklar oilasining chin bir a‘zosi bo‘lib ketgan.* A. Qodiriy, O‘tgan kunlar.<sup>40</sup>

Arab tilida quyidagi so‘zlar ham muayyan vaqt bilan bog‘liq bo‘lgan ma’nolarni anglatadi.

-، اني ko‘p. اناء vaqt; اطراف النهار اناء to‘xtovsiz, tinimsiz, kecha-yu kunduz.

- لمح 1) nazar, qarash; 2) on, vaqt, payt;

- لمحة ko‘p. لمحات 1) nazar, qarash; 2) on, payt, vaqt;

طرفة -1) lahza, zum, on; طرفة عيني ko‘z ochib yumguncha;

برهة - ko‘p. برهات qisqa vaqt, ko‘z ochib yumguncha, o‘tkan vaqt, lahza, on, fursat, dam, nafas; برهة من الزمان - biro z fursatda, qisqa vaqt ichida; في كل برهة - istagan paytda;<sup>41</sup>

Endi o‘zbek leksikasida yuqoridagi so‘zlarga izohlarni ko‘rib chiqaylik.

لحظة - lahza, on, ko‘z ochib yumguncha o‘tadigan vaqt, في لحظة - bir lahzada; في اخر

لحظة - oxirgi lahzada (onda), لحظتئذ - o‘sha lahzada .

O‘zbek tilida lahza so‘ziga quyidagicha ta’rif berilgan:

LAHZA [لحظة — qo‘z ochib yumgunchalik vaqt, on, soniya) Ko‘z ochib yumguncha o‘tadigan vaqt; on. Lahza ichida. Lahza o‘tmasdan. Bir lahzada. Ko‘z

<sup>40</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т.:“Ўзбекистон миллий енциклопедияси”, 2006 - 2008. 360 – 361 бетлар

<sup>41</sup> Ан-На’им Арабча-ўзбекча луғат.Т.: “Халқ мероси” нашриёти., 2003. 743 - бет.

ochib yumguncha o'tgan dam — qimmat, Bir lahza mazmuni bir butun bahor. F. Fulom. Yo'lchi ishdan bir lahza bo'lsin to'xtamadi. Oybek, Tanlangan asarlar.<sup>42</sup>

LAHZALIK: bir lahzalik Juda tez, bir onda bo'lib o'tadigan. O'zing ketding, qoldi xayolda Xumor ko'zlar, issiq boqishing. Bir. lahzalik dil ayyomidan Sira so'nmas shirin yoqishing. Zulfiya.

فرصة – *ko'p.* فرص 1) qulay fursat, qulay vaqt; shans ; سانحة فرصة qulay fursat (on, moment); 2) ishdagi tanaffus payti (vaqti); ta'til, kanikul.<sup>43</sup>

O'zbek izohli lug'atida esa:

FURSAT [a. فرصة- maqbul, qulay vaqt; imkoniyat; ishdagi uzilish, ta'til| Biror ishni bajarish uchun eng qulay vaqt, payt. Fursat poylamoq. Fursat keldi. Fursatdan foydalanmoq, hasratlashishga juda qulay fursat tug'ildi. Kimning dardi yo'q deysiz? I. Rahim, Chin muhabbat. Fursat — oltin, sen ko'krak kerib, Oltiningni sochib yuribsan. E. Vohidov, Muhabbatnoma.

Fursatni boy (yoki qo'ldan) bermoq, qulay vaqt, paytdan foydalanmay, uni bekorga, bemaqsad o'tkazmoq. *Hozir..o'ylanib o'tirish, fursatni boy berish payti emas.* M. Ismoiliiy, Farg'onada tong otguncha. *Hofiz fursatni qo'ldan bermay, safar anjomlarini tayyorlab, ikki navkar bilan yo'lga chiqdi.* M. Osim, Zulmat ichra nur.

Fursatni qochirmoq ayn. fursatni boy bermoq. *Zuhra chindan ham meni tanigan! Fursatni qochirmasdan, chorasini ko'rish kerak.* N. Safarov, Tanlangan asarlar.<sup>44</sup>

ان - on, fursat, الان - ya'ni bu so'z hozir ma'nosida ishlatiladi.

O'zbek tili izohli lug'atida esa on so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan:

On [f.ان- u, ular): on hazratlari) u oliy hazratlari (podshoh, amir, xon va sh.k. haqida). *Mirzo Anvardan on hazratga nomussizona bir xiyonat sodir bo'ldi.* A. Qodiriy, Mehrobdan chayon.

<sup>42</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. - Т.; “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006 - 2008. 428 – 429 бетлар

<sup>43</sup> Ан-На'им Арабча-ўзбекча луғат. - Т.; “Халқ мероси” нашриёти. , 2003. 616 - бет.

<sup>44</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. - Т.; “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006 - 2008. 367 – бет.

On (a. ان — vaqt, davr, payt) Qisqa bir zamon: lahza, payt. Bir on. Shu onda, *Bir onning bahosin o'lchamoq uchun Oltindan tarozu, olmosdan tosh oz.*F.Fulom. *Umid Hafiza bilan bo'lgan shirin onlarini xayolidan o'tkazardi.* Mirmuhsin, Umid.<sup>45</sup>

Voqea - hodisaning kechgan zamoni, odatda, fe'llarda aks etadi. Fe'llarning zamon kategoriyasida harakat vaqti, uning so'zlanayotgan paytga nisbatan uch zamonda (o'tgan, hozirgi va kelasi zamonda) ekanligi anglashilib turadi. Fe'llar masdar shaklidagina zamoni bildirmaydi. Arab tilida fe'lning o'tgan zamoni boshqa tillar kabi ish-harakatining tugallanganligi, o'tgan zamonda bo'lib o'tganligini bildiradi.

Masalan: ذهب - ketmoq, 3 دخل - kirmoq, خرج - chiqmoq, عَلِمَ - bilmoq, نَظَّفَ - pokiza bo'lmoq, حَسُنَ - yaxshi bo'lmoq va h.k.

Arab tilida fe'lning hozirgi – kelasi zamoni hozirgi zamonda, kelasi zamonda, ba'zan esa o'tgan zamonda amalga oshadigan tugallanmagan ish-harakatni bildiradi, shuningdek u har doim amalga oshadigan ish-harakatni ham ifodalashi mumkin.<sup>46</sup>

Masalan: ينزل – tushyapti, يشرب - ichyapti, يخرج – chiqyapti va hk.

Gapdagi fe'ldan voqea – hodisaning zamoni anglashilib turadi. Harakat zamonsiz bo'lmaydi. Biroq, so'zlovchi nutqidan harakat zamonining aniq bir muddati anglashilmasligi mumkin. Bunday hollarda nutqda payt ravishlaridan foydalaniladi.<sup>47</sup> Payt ravishlari voqea-hodisaning kechgan zamoniga aniqlik kiritadi. Masalan, *keldi* deyilganda birovning o'tgan zamon dakelganligi tushuniladi. Agar *kecha keldi* deyilsa, harakatningkechgan zamonianiqlashadi: bugun va yoo'tgan kuni emas, aynan kecha kelgani anglashiladi. Masalan:

وصل المعلم الى المدرسة قبل الظهر - O'qituvchi peshindan oldin maktabga yetib keldi. Ushbu jumlada وصل fe'li va قبل الظهر (peshindan oldin) payt ravishi voqea – hodisani o'tkan zamonda sodir bo'lganligini bildirib kelyapti.

<sup>45</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. - Т.; “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006 - 2008. 125 – бет.

<sup>46</sup> Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. I жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 1997. 126 -127 бетлар.

<sup>47</sup> Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. I жилд. Т.; “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 1997, 126 -127 бетлар.

Keyingi misolni hozirgi kelasi zamonda beramiz. Masalan:

الطالب الان يقرأ الكتاب العربي - Talaba hozir arabcha kitobni o'qiyapti. Ushbu jumlada ya'ni o'qiyapti va الان ya'ni hozir payt ravishi voqea - hodisani hozirgi zamonga tegishli ekanligini bildirib kelmoqda.

Vaqt aniqligini fe'ning turli shakllari bilan ham ifoda etish mumkin.

Hozirgi arab tilida zamoni yanada konkretlashtirish uchun qo'shma fe'llardan, xususan كان fe'li ishtirok etadigan qo'shma fe'llardan keng foydalaniladi. Bunday qo'shma fe'llar quyidagi zamon ma'nolarini bildiradi:

كان fe'li o'tgan zamonda va yetakchi fe'l hozirgikelasi zamonda kelganida, ish-harakatning o'tgan zamonda uzoq davom etganligi yoki o'tgan zamonda bir necha bor takrorlanganligi bildiriladi.

Masalan:

قبل سنتين كنت أدرس في الجامعة - Ikki yil avval men universitetda o'qir edim.

في تلك الفترة كنا نلعب الشطرنج كل يوم - O'sha kezlarda har kuni shaxmat o'ynar edik.

2. كان fe'li ham, yetakchi fe'l ham o'tgan zamonda bo'lganida, ish-harakatning o'tgan zamonda bo'lib o'tganligi yoki o'tgan zamondagi boshqa bir ish-harakatdan oldin sodir bo'lganligi ifodalanadi. Bunda yetakchi fe'l oldidan yuklamasi ham kelishi mumkin. Mas.,

في أوائل الشهر كان طلاب الصف الأول قد دفعوا جميعاً امتحاناتهم

– Birinchi kurs talabalari o'ning boshlarida barcha imtihonlarini topshirib bo'lgan edilar.

كانت زينب سافرت إليها مساء أمس

– Kecha kechqurun Zaynab yurtiga jo'nab ketib bo'lgan edi.

كان fe'li hozirgi-kelasi zamonda, yetakchi fe'l esa قد yuklamasi bilan o'tgan zamonda kelganida, ish-harakatning kelasi zamonda biror ish-harakatdan yoki paytdan ilgari sodir bo'lajagini bildiradi.<sup>48</sup>

<sup>48</sup> Иброхимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. I жилд. Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 1997. 126-127 бетлар.

## Masalan

بعد عدة سنوات تكونو قد تخرجتم من الجامعة ya'ni ma'nosi “Bir necha yildan keyin universitetni tugatib bo'lgan bo'lasizlar”.

Masalan, *kelgan edi* deyilganda o'sha kimsaning “bir zamonlar kelganligini” tushunamiz. Tilshunoslikda, bunday fe'l shaklini “uzoq o'tgan zamon” deyiladi. Arab tilida Uchta zamonning ichki bo'linishlari shuning singari yo'llar bilan hosil qilinadi. “Vaqt o'lchovlari” deyilganda aniq vaqt birligini, davriylikni tushunamiz. Vaqt o'lchovi annashu davriylikning atamasidir. Tilda ushbu vazifani otlar bajaradi.

Vaqt o'lchovining aniqligini ifodalashda sonlardan foydalaniladi. Masalan, *oy* deganda “o'ttiz kunlik muddat”ni tushunamiz. Agar *biroy* yoki *ikkioy* deyilsa, vaqtning aniq bir muddati anglashiladi. Vaqtning aniqligini ifodalashda istalgan dona sondan foydalanish mumkin. Biroq bu masalada kasr sonlarning vazifasi cheklangan. Masalan, *yarim* sonini olaylik, uni asr, yil, oy, kun, soatga, hatto daqiqaga nisbatan ham qo'llashimiz mumkin.<sup>49</sup> *Yarim* deganda, odatda, o'sha vaqt birligining teng yarmi tushuniladi. Endi *chorak*ni hamma vaqt birligiga nisbatan qo'llay olmaymiz. Masalan, *chorak asr* deymiz. *Yilning choragi* deyilganda “yilning to'rtidan biri–uch oyi” hozirgi arab tasavvurlarida “fasl” tushuniladi. Shuningdek, *chorak soat* deyishimiz mumkin, biroq *chorak oy*, *chorak kun* tushunchasi yo'q.

Ba'zan ko'rsatish olmoshlari, sifatdoshlar ham vaqt aniqligini ifodalashga xizmat qilishi mumkin. Masalan, *o'sha yil*, *o'tgan oy*, *kelasi yil* deganimizda aniq bir muddat anglashiladi. Bu hodisalarning bari qadimgi arab tiliga ham zamonaviy arab tiliga ham xos.

Vaqt o'lchovlarining darajalari bor. Arablarda eng katta vaqt o'lchovi “asr” (yuz yil)dir. Undan quyi daraja–“yil”. Bulardan keyin “fasl”, “oy”, “kun” va shutartibda maydalashib boradi.

---

<sup>49</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006 - 2008. 448 – 449 бетлар

## II BOB. Arab va o'zbek tillarida davriy vaqt talqini.

### II.1. Davriy vaqt nomlarining arab va o'zbek tilarida berilishi

Arab tilida “asr, yuz yillik, davr” ma’nosini قرون *ko’p*: قرون so’zi ifodalaydi. Masalan : القرون الوسطى “o’rta asrlar”.

O’zbek tilining izohli lug’atida asr so’ziga quyidagicha izoh berilgan:

Asr 1. Yuz yillik davr, yuz yil. *Yigirmanchi asr. O’tgan asrning so’nggi kuzi Qorabuloqqa ochiq chehra bilan keldi. M.Ismoiliy, Farg’ona tong otguncha. Bu daraxtlar bir necha asr umr ko’rgan. Oybek, Nur qidirib.*<sup>50</sup>

O’zbek tilida Quyosh botish chog’idan bir soatcha oldingi payt va shu paytda o’qiladigan namoz ham asr deyiladi. *Kechki soat to’rtlar, asrdan bir oz ertaroq hukumat askari bilan xalq orasida urush boshlandi. Abdulla Qodiriy, O’tkan kunlar.*

Arab tilida ham kunning aynan shu payti عصر *ko’p*: عصور “asr payti”, “kun o’tmasdan keying payt” so’zi orqali ifodalanadi. العصر العصران “asr namozi”, “tun va kun”. Arab tilida bu so’z yuqoridagi قرن so’ziga sinonim tarzda “asr, davr” ma’nolarida ham qo’llaniladi, ya’ni عصر *ko’p*: عصور, اعصار, عصر

- العصور الوسطى - o’rta asrlar
- عصر الحخارة yoki العصر الحخارى - tosh asri
- عصر بنى امية - Ummaviylar davri
- عصر الذرة و الفضاء - atom va kosmos asri
- في عصر الشباب - yigitlik (yoshlik) yillar va hokazo.

Bu o’zakdan vaqt va davr bilan bog’liq bir qator so’zlar yasaladi .

Masalan:

<sup>50</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006 - 2008. 108 – 109 бетлар.

- عصرية 1) asrga molik; zamonaviylik; 2) zamon ruhiga mos firklash tarzi; modernizm; 3) asr vaqti.
- عصري asriy, asrga mos; zamonaviy; eng yangi
- معاصر 1) hozirgi zamonga oid; 2) zamondosh.

Bu o'zakka ن harfi qo'shilib , yuqoridagi mazmundagi fe'llar ham yasaladi. تعصرن “asr vaqtida ovqatlanmoq”; عصرن “zamonaviylashtirmoq ; modernizatsiya qilmoq”; عصرية “asr vaqti (kun o'rtasi bilan kechki payt orasidagi vaqt)”.

Arab tilida دَهْرُ ko'p: ادھر ; دهور so'zi ham juda uzoq vaqt bilan bog'liq bir qator ma'nolarni anglatadi.

1) dahr, davr, asr; geol. davr; دهر الانسان inson asri; الدهر الاول paleozoy davri; الدهر الثاني mezozoy davri; الدهر الثالث uchlamchi davr; الدهر الرابع to'rtlamchi davr; ما الى دهر الی دهر الداهرين yoki دهرًا u hech qachon yolg'on gapirmagan كذب دهر ه umrbod, bir umrga; على مدى الدهور asrlar osha, abadiy.

O'zbek tilida bu so'z mumtoz adabiy namunalarda “zamon, davr ” ma'nolarida qo'llaniladi. Masalan, *Dahrning baqosiz va vaqosiz ekanini aytadi, uninmg kajraftorligidan noliydi. “O'TA”*.

Arab tilida davr , asrga nisbatan qisqaroq vaqtni ifodalovchi “Yerning Quyosh atrofida bir marta aylanib chiqish muddati , o'n ikki calendar oyiga teng vaqt, shunday vaqtga teng o'lchov - yil<sup>51</sup> so'zi سَنَةٌ ko'p: سنوات , سنون , yoki عام ko'p: اعوام so'zi bilan ifodalanadi, سنة دراسية yoki عام مدرسي o'quv yili; سنة شمسية quyosh yili; سنة قمرية qamariy yil ; سنة ميلادية - milodiy yili; سنة هجرية hijriy (musulmonlar yil hisobi boyicha) yil; سنة كبيسة kabisa yili; سنوي yoki سنة كبيسة yil boshi yoki , yangi yil; سنة كبيسة yillik yoki عامي yilga oid.<sup>52</sup>

Yil so'ziga o'zbek tilining izohli lug'atida yana quyidagicha ta'riflar berilgan:

<sup>51</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. -Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006 – 2008, 267-268 бетлар.

<sup>52</sup> Ан-На’им. – Т.: “Халқ мероси нашриёти”, 2003, 396, 575 бетлар.



1. Biror voqea, hodisa yuz bergan kundan boshlab o'tgan o'n ikki oylik vaqt *Uning ishga kirganiga besh yil bo'ldi. Bo'lmasa nima qil deysiz: yana ikki yil kut deysizmi? — dedi tutoqib xotini. Mirzakalon Ismoiliy, Farg'ona tong otguncha.*<sup>53</sup>

2. O'n ikki oylik vaqt bilan hisoblanadigan kalendar tizimi. *Milodiy yil. Hijriy yil. Kabisa yili. Quyosh yili. Oy yili. Qamariya yil hisobi. Yil o'n ikki oy ya'ni yil bo'yi. Yil o'n ikki oy bekorga ishlabman!*

3. O'quv yili yozgi kanikul oxiridan boshlab kelgusi yozgi kanikul boshlanishigacha bo'lgan o'qish muddati.

4. Biror planetaning Quyosh atrofidan bir marta aylanishida o'tadigan muddat. Mars yili (687 sutkaga teng), Zuhra yili (225 sutkaga teng).

5. Muchal yil hisobida o'n ikki muchalning biri. *U qo'y yilida tug'ilgan. — yiling nima? Yilim — sichqon. Bu yil im yili ekanmi, bilmayman. Kulollikda ham meni itlar tinchitmadi. G'.G'ulom, Shum bola.*

6. Yil oshi. Kishi vafotiga bir yil to'lishi munosabati bilan (odatda to'qqizinchi yoki o'n birinchi oyda) xaloyiqqa osh berib o'tkaziladigan marosim. *U vazifa ota-onamiz uchun yil oshi berish va ikki ukamizni to'y qilish edi. S.Ayniy, Esdaliklar.*<sup>54</sup>

Shuningdek, o'zbek tilida yil so'zi (faqat ko'plik ma'noda) muayyan tartib sonlardan keyin kelib, o'n yillik muddatni ifodalash uchun ham ishlatiladi. *Yigirmanchi yillar adabiyoti. Uttizinchi yillar davomida sanoat va qishloq xo'jaligimizda katta burilish yuz berdi.*

Ma'lumki, bir yil to'rt faslga bo'linadi. Fasl 1. Bir yilni tashkil etadigan to'rt mavsumning biri (qish, bahor, yoz, kuz). *Toshkentda uch fasl yoz: Bahor-shoshgan ichki yoz. Yoz — katta va asl yoz. Kuz - kechikkan kechki yoz. M.Shayxzoda, Toshkentnoma; Har faslning o'z xislati bor. Har faslning o'z fazilati... Uyg'un.*<sup>55</sup>

O'zbek tilida fasl so'zi vaqt bilan bog'liq yana quyidagi holatlarda ishlatiladi.

<sup>53</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006 – 2008, 267-268 бетлар.

<sup>54</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006 - 2008. 267 – 268 бетлар.

<sup>55</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006 - 2008. 333 -бет.

1. Ko'chma "vaqt , muddat , davr " ma'nolarida. *O't solasan qalbingga , ey gul, Sevgi fasl tanlamas ekan.*J.Jabborov, Tog'lar sadosi.

2. Bir fasl degandla "birpas, bir oz" ma'nolarida. *Bir fasl jim bo'lgan mehmonxona ichida yana tapir-tupur, to'olon boshlandi.* S.Ayniy, *Qullar.*<sup>56</sup>

Fasl –tabiatning bir yildagi mavsumiy o'zgarishidir. Havoning o'zgarishiga qarab, fasllar surilib ham turadi. Bundan tashqari, Yer yuzining turli nuqtasida fasllar almashinuvi har xil. Fasllarning mavsumiy hodisa ekanligi xalq tafakkurida yaxshi aks etgan. Kuzda kunlar erta sovib, qor tushsa, "bu yil qish erta keldi", deb qo'yamiz. Yoki ko'klamda sovuqning zahri ko'tarilavermasa, "qish cho'zilib ketdi" deymiz. Demak, qish ham o'sha yili shunchalik uzoq davom etgan bo'ladi.

فَصْلٌ – so'zining ma'nolari:

1) bo'lim, qism, bob (kitobning); 2) aloqani uzish (*biror narsa bilan nimadir o'rtasida* بين ...و); 3) yil vaqti, mavsum; 4) sinf, sinf xonasi; 5) teatr. parda; sahna;<sup>57</sup>

فَصَلَ (y) 1) bo'lmoq (nimadandir) ajratmoq, bo'laklamoq (عن;) (*kimnidir, nimanidir*) bir-biridan ajratib (bo'lib) yubormoq (بين), 2) (*xizmatdan*) bo'shatmoq, (*biror nimadan*) chiqarmoq (من); din. (*nimadandir, masalan, dindan*) chetlatmoq - xristianlarda); فصل الولد عن الرضاع xizmatdan bo'shatmoq (chetlatmoq) فصل من الخدمة bolani ko'krakdan ajratmoq 3) (*nimanidir*) hal qilmoq, (*nima haqdadir*) qaror chiqarmoq (في); 4) bahosini aytmoq, narx belgilamoq bar. فصول (فصل) (kimningdir oldidan) ketmoq, chiqmoq (عن); (qaerdandir) jo'nab ketmoq (عن); jo'namoq. . yo'lga tushmoq (masalan karvon haqida);

Bu fe'lning II bobi ham shu ma'noda.

Arab tilida yil fasllari quyidagicha nomlanadi:

- ko'p: ربيع , ربيع – bahor , bahor payti. Shu o'zakdagi fe'lning VIII bobi vaqt bilan bog'liq ma'noni anglatadi. Masalan: ارتبع – bahor faslini o'tkazmoq.

<sup>56</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. - Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2006 - 2008. 333 бет.

<sup>57</sup> Ан-На'им . Арабча- ўзбекча луғат. – Т.: "Халқ мероси нашриёти", 2003. 644 - 645 бет.

- صيف ko'p: اصيف - yoz fasli. ايام الصيف - yoz kunlari. صيف شتاء – yozda ham qishda ham, yozin – qishin; صيفي – yozga oid.

- خريف – kuz . خريفي - kuzgi, kuzda yetishtiriladigan, kuzda bo'ladigan

- ko'p: لشتاء - اشتية – qish. شتوي – qishki شتائي – qishki.

Bir yil o'n ikki oydan iborat. Oy astronomik yilning o'n ikkidan biriga, Oyning Yer atrofidan bir marta aylanib chiqish muddatiga teng vaqt, o'lchov birligi 30, 28, 29 yoki 31 kunlik davr. *Oy boshi. May oyi. Bir yil o'n ikki oy. Yilning boshi — yanvar oyi. Bu orada uch oy o'tdi, Yez oylari ham o'tib ketdi. Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug'.* Maqol. *O'g'lim bechora oy o'tmasdan bo'zchining mokisidek qatnab tursa.* A. Qodiriy, O'tgan kunlar. <sup>58</sup>

Markaziy Osiyodagi tillarda oy so'zining ikkita ma'nosi bor: “koinot jismi” va “vaqt birligi”. U dastlabki ma'nosida “koinot jismi”ni bildirgan. Keyingi ma'nosi uning davriy aylanishi (o'ttiz kunligi) asosida kelib chiqqan. Boshqa tillarda bunday emas (masalan, ingliz va rus tillarini qiyoslang). Bu ham bo'lsa, qadimgi Markaziy Osiyoliklar tasavvurida vaqt tushunchalari astronomik tasavvurlar bilan uyg'un holda yuzaga chiqqanligidan dalolat beradi. “Kun” so'zi ham shunday: uning ilkin ma'nosi – “Kun(Quyosh)”, vaqt ma'nosi esa undan kelib chiqqan.

Arab tilidada “oy” so'zi شهر ko'p: شهر yoki اشهر so'zi bilan ifodalanadi. الشهر الشهر - joriy (hozirgi) oy; الشهر القادم - kirib kelayotgan oy; الشهر المنصرم - yoki (المضي) – o'tgan (o'tib ketkan) oy;<sup>59</sup>

Yil o'n ikki oyga bo'linadi. Ular arab tilida ikki xil beriladi: Yevropacha va arabcha (suryoniy). Oylarning Yevropacha nomlanishi quyidagicha.

يناير	-	yanvar
فبراير	-	fevral
مارس	-	mart
أبريل	-	aprel

<sup>58</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. - Т.; “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006 - 2008. 98 – 99 бетлар.

<sup>59</sup> Ан-На'им Арабча-ўзбекча луғат. - Т.; Халқ мероси нашриёти, 2003. 438 - б.

مايو	-	may
يونيو	-	iyun
يوليو	-	iyul
أغسطس	-	avgust
سبتمبر	-	sentabr
أكتوبر	-	oktabr
شهر نوفمبر	-	noyabr
ديسمبر	-	dekabr

Arabcha ya'ni suryoniy oy nomlari quyidagilar :

كانون الثاني	-	yanvar
شباط	-	fevral
آذار	-	mart
نيسان	-	aprel
ايار	-	may
حزيران	-	iyun
تموز	-	iyul
أب	-	avgust
أيلول	-	sentabr
تشرين الاول	-	oktabr
تشرين الثاني	-	noyabr
كانون الاول	-	dekabr <sup>60</sup>

Islom davridan Markaziy osiyoliklar ham arab taqvimini qo‘llay boshladilar va oylar ham arabcha atala boshladi. Masalan: *zulqada oyi*, *rajab oyi*, *muharram oyi* singari.

Bulardan tashqari arab tilida xijriy va qamariy oy nomlari ham qo‘llaniladi.

Qamariy oy nomlari quyidagilar:

المحرم - Muharram.

<sup>60</sup> Б. З. Халидов. Учебник арабского языка – Т.: “O‘qituvchi”, 1981 . - С.323

السفر - Safar.

ربيع الولى - Rabi'ul- 1 - avval.

ربيع الثانى - Rabi'ul- 1 - soniy.

جمادى الاول - Jumodu- 1 - avval.

جمادى الثانى - Jumodu- s - soniy.

رجب - Rajab.

شعبان - Sha'bon.

رمضان - Ramazon.

شوال - Shavvol.

ذو القعدة - Zu-1 - qa'da.

ذو الحجة - Zu-1-hijja.

Lekin o'zbek tilida xijriy qamariy oy nomlari faqat diniy adabiyotlar , taqvimlarda qo'llaniladi.

Oylar haftalarga bo'linadi. Hafta yetti sutkadan iborat. Deyarli barcha xalqlarda qadimdan mavjud. Yetti kunlik hafta dastlab Sharqda qo'llangan, milodiy 1-asrdan Rimda ishlatilgan. Qadimda xalqlar nazarida 7 raqami g'ayri tabiiy "muqaddas" son hisoblangan. Astronomik jihatdan esa hafta oy fazalariga qarab belgilangan. Masalan, qadimgi bobilliklar oy fazasining tahminan 29,5 kunda o'zgarib turishini aniqlaganlaridan so'ng oy deb atalgan vaqt o'lchovi birligi bo'lganligi uchun 1 oyning har biri 7 kunga teng chorakka bo'lingan. Ba'zi xalqlarda besh kunlik va o'n kunlikdan iborat hafta. bo'linishlari bo'lgan; masalan, o'n kunlik hafta (dekada) qadimgi misrliklarda, keyinchalik fransuz burjua inqilobi kalendarida mavjud bo'lgan.

Hafta kunlari arab tilida quyidagicha nomlanadi.

يوم الاحد - yakshanba

يوم الاثنين - dushanba

يوم الثلاثاء - seshanba

يوم الاربعاء - chorshanba

يوم الخميس - payshanba

يوم الجمعة - juma

يوم السبت - shanba

Hafta kunlardan tashkil topadi. Arab tilida kun (kecha-kunduz) **يوم** k`op: **ايام** 1. kun, sutka; **اليوم** – bugun hozir; **في يوما** - bir kun. **في اليوم ذاته** - o`sha kunning o`zida .

Kun so`ziga izohli lug`atda bir qator izohlar berilgan. Jumladan;

1. Sutkaning quyosh chiqishidan quyosh botguncha bo`lgan qismi. *Hasanali kunlarini tomoqsiz, tunlarini uyqusiz kechira boshladi*. A. Qodiriy, O`tgan kunlar.

2. Bir kecha-kunduzga — 24 soatga teng vaqt; sutka. *Bir yil — 365 kun*.

3. Oy yoki haftaning ma`lum bir kalendar sanasi; ma`lum bir hodisaga bag`ishlangan kun, sana.

4. (ko`pl.shaklida) Kunlar bilan belgilanuvchi vaqt, payt, kez, davr. *Bolalik kunlarimda, Uyqusiz tunlarimda, Ko`p ertak eshitgandim*. H. Olimjon. *Erkin kunlar kelur, istiqbolimiz yorqin, toleimiz baland bo`lur, albatta*. Oybek, Nur qidirib.<sup>61</sup>

*ليلا و نهارا* ning ikkalasining ham teng yarmidan ikkiga ajratuvchi vaqt birliklari bor: *الظهر* – kunning qoq o`rtasi, choshgoh; *منتصف الليل* – tunning o`rtasi. Qolgan vaqt birliklari ana shu aylanada harakat qiladi: *نهاية الليل* – tunning oxiri, *صباح* kunning boshlanishi, *في المساء* – kunning oxiri, *بداية الليل* tunning boshlanishi.<sup>62</sup>

Kunning vaqt birligi sifatida *متأخر في وقت مبكر* so`zlari ham qo`llaniladi. Bular aslida, kunduzning vaqtini emas, zamoni bildirgan. Kunning vaqti sifatidagi ma`nosi ana shuning asosida yuzaga kelgan. *Erta* so`zining ilkin ma`nosi “bo`lib o`tgan, burungi” degani, *ertak* so`zi ham shundan. Yoki *ertaki* deydi, bu “o`tgan zamonga oid, burungi, ilk” degani. *Erta* so`zi kunning vaqt birligi sifatida “tong”ni bildiradi.<sup>63</sup> Muhimi shundaki, so`zning har ikkala ma`nosi tilimizda yonma – yon qo`llaniladi: *صباح* deganda “tongning boshlanishi” yoki *erta keldi* deganda “vaqtning boshlanish paytida, hatto undan ham ilgariroq keldi” deb tushuniladi.

<sup>61</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. -Т.; “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006 - 2008. 428 бет

<sup>62</sup> Ан-На`им. Арабча-ўзбекча луғат. -Т.; “Халқ мероси” нашриёти, 2003. 767- бет.

<sup>63</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. - Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2006 - 2008. 51 – 52 бетлар.

Hozirgi o‘zbek tilidagi *ertalab* so‘zi ham shundan yasalgan (<erta-la-b<i>): “erta bilan” degan ma’noni bildiradi. Kech so‘zining ham ilk ma’nosi “kechgan, bo‘lib o‘tgan” degani. Kechki so‘z deydi, bu “burungi so‘z, qadimgi masal, hikmat” degani. Bu so‘z kunning vaqt birligi sifatida “kechib o‘tilgan, tugagan” ma’nosini bildiradi. Hozirgi o‘zbek tilidau “kunning kechki pallasi”, “zamonning oxiri” ma’nosida ham yonma-yon qo‘llanilaveradi: kech keldi deganda “muddati tugash chog‘ida, hatto muddatida nkeyin keldi” deb tushuniladi. Kechqurun so‘zi ham shundan yasalgan: kech-qur-un. Qur so‘zida “qorong‘i” ma’nos ibor, -un – tarixan vosita kelishigi.</i>

Arab tilida kecha-kunduz bilan bog‘liq vaqtlar shunday ataladi: الصباح – sahar, bomdod vaqti, شمس في الوقت – kun chiqishi, الظهر – tush payti, بعدالظهر – kunning ikkinchi yarmi, tush bilan kechkipayt oralig‘idagi vaqt, nomozga nisbatan kunning ikkinchi yarmida o‘qiladigan asr nomozi vaqti, في المساء – oqshom, shom, ليل – yotar payt, deca – kecha, منتصف الليل – yarimtun.

Kun soatlardan iborat. Arab tilida soat quyidagicha ifodalanadi.

الساعة الخامسة - soat besh ,

في الساعة الثانية عشرة - soat 12 da

الساعة الواحدة ليلا - 1 soni o‘rnida tartib son emas, sanoq son واحدة ishlatiladi. tungi soat bir.

Vaqtни ifodalashda faqat o‘n ikkigacha bo‘lgan raqamlar ishlatiladi. Shuning uchun sonlardan keyin صباحا - ertalabki, نهارا - kunduzgi, مساءً – oqshomgi, ليلا – tun kabi so‘zlar qo‘shib qoyiladi. Masalan:

الساعة الخامسة صباحا - soat ertalabki besh.

في الساعة السادسة مساءً - soat 18 ( ya’ni kechki olti) da

حتى الساعة الثانية نهاراً – soat 14 (yani kunduzgi ikki) gacha

Arab tilida kun quyidagich tartib son bilan ifodalanadi. Masalan:

10 iyun, — اليوم العاشر من شهر حزيران

25 sentabr. — اليوم الخامس والعشرون من شهر ايلول

Ba'zan شهر so'zi tushib qolishi ham mumkin. Masalan:

اليوم العاشر من رجب – Rajab oyining yigirmanchisi.

Ba'zan esa من predlogi ishlatilmasligi mumkin. Bunda tartib son bilan oy nomi izofa hosil qiladi. Masalan:

6 aprel - السادس من ابريل

Yilni ifodalashda tartib son ham ishlatilishi mumkin. Masalan:

1992 yilda - في السنة الالف و التسعمئة و الثانية و التسعين

1882 yilda - في السنة الثانية و الثمانين بعد الألف و الثمانئة

Hozirgi arab tilida yilni ifodalash uchun sanoq son ishlatilmoqda va u “yil – عام سنة ,” so'zi bilan izofa hosil etadi. Bunda “yil” so'zi muzof, sanoq son muzof ilayhi bo'lib keladi. Lekin shunga qaramay, sonning o'nlar xonasi “yil” so'zi bilan sanalmish ot bilan qanday moslashsa, shunday moslashadi.<sup>64</sup> Masalan:

1654 yil - سنة الف و ستمئة و اربع و خمسين

1654 yilda - عام الف و ستمئة و اربعة و خمسين

## II.2. Arab va o'zbek frazeologik hamda paremiologik birliklarida “vaqt” konsepti.

Yaxshi tarjimaga erishish uchun tarjimon yaxshi adabiyotchi xam bo'lishi kerak. U adabiyot nazariyasini bilishi bilan birga adabiy janr turlarini xam idrok eta olishi zarur. Biz badiiy adabiyotdagi janrlar ichida, xalq og'zaki ijodida yetakchi o'rin

<sup>64</sup> Иброхимов Н. Юсупов М. Араб тили грамматикаси. I жилд. - Т.: “Узбекистон миллий енциклопедияси” , 1997 .126 -127 бетлар.



tutgan maqol va matallar xaqida soʻz yuritmoqchimiz. Avvalo maqol nima? degan savolga aniqlik kiritib olsak. Folklorshunos olimlar Timofeyev va Vengerovlarning taʼriflashlaricha, «maqol - sheʼriy tarzda xayotda sodir boʻlmish voqelikka nisbatan xalq tomonidan aytilgan xulosa».<sup>65</sup> Koʻp hollarda maqollar ikki qismdan iborat boʻladi. Sodir boʻlmish voqelikni ramziy maʼnolarda ifodalash bilan birga insonni xushyorlikka chorlaydi. "Yaxshining soʻzi - qaymok, Yomonning soʻzi - toʻqmoq.", "Eshikli boʻlding - beshikli boʻlding.", "Chumchuq soʻysa ham qassob soʻysin.", "Sulaymoi oʻldi, devlar qutuldi.", "Hamal keldi - amal keldi" kabi obrazli va yaxlit barqaror birikmalar maqol hisoblanadi. Endi matallarga kelsak X. Berdiyurov va R.Rasulovniig fikrlariga koʻra matallar - tarbiyaviy pand - nasihat manolarini ifodalovchi, grammatik jihatdan toʻliq gap shaklida boʻlgan, faqat oʻz maʼnosida - toʻgʻri maʼnoda qoʻllanadigan, qisqa, ixcham xalq iboralaridir. Masalan: goʻsht suyaksiz boʻlmas, sholi - kurmaksiz, gul tikonsiz boʻlmas, gumon iymondan ayirar. Qadimdan maqol va matallar dunyo olimlarini qiziqtirib kelgan. Xalqlarning bir-biri bilan boʻlgan oʻzaro munosabatlari natijasida maqol va matallar bir-birini toʻldirib rivojlanib boradi, bu jarayonda ularning tillardan tillarga oʻgirilishi ham katta ahamiyat kasb etadi.

Ayrim manbalarda tilning yaxlit birligi boʻlmish maqol yoki matal barcha tillar uchun umumiy boʻlgan, bir xil mazmun va maʼno kasb etuvchi «parema» bilan ifodalanganligining guvohi boʻlamiz. Bu atama konkret tillarga bogʻliq «maqol», «poslovisa», «مَثَلٌ» kabi atamalarning oʻrnini bosa oladi (qiyoslang: tovush, zvuk, صَوْتٌ va x.k.lar oʻrniga «fonema», yoki soʻz, slovo, كَلِمَةٌ va x.k.lar oʻrniga «leksema» ishlatiladi), lekin bizningcha, «parema» atamasini «paremiema» atamasi bilan almashtirish maqsadga muvofiq boʻlardi, chunki u grek tilidagi «ragopa» (paremiya) soʻzidan: olingan boʻlib, u hikmatli soʻz, masal, hikoya kabi maʼnolarni anglatadi.<sup>66</sup> Bizningcha, «parema» atamasida grekcha suz «paroimia» oʻzining toʻliq aksini

<sup>65</sup> Тимофеев Л., Венгеров Н. Краткий словарь литературоведческих терминов. – М.: 1955. – С. 107.

<sup>66</sup> Словарь иностранных слов. – М., 1955, - С. 515

topmagan, aksincha uning bir kismigina saqlanib qolgan va etnik birlik sifatida unga «-sma» qo‘shimchasi qo‘shilib, vaxolanki «paremiema» atamasida esa mazkur grek so‘zi o‘zining to‘liq aksini saqlay olgan bo‘lardi.(takkoslang: « par+ema» va «paremi+ema»), shunday qilib, «parema» atamasidagi «par-» qismi xech kanday ma’noga ega emas, chunki grek tilida «rag-» so‘zi yoki morfemasi umuman yo‘k, lekin «raga» so‘zi mavjud bo‘lib, u «yonida», «yakinida» kabi ma’nolarni anglatadi<sup>67</sup>, qolaversa, frazeologiyaning maqol va matallarni o‘rganuvchi bo‘limining nomi xam bejiz «paremiologiya» deb atalmagan (axir «paremologiya» emas-ku!).

Arab tilida mazkur turdagi maqollar o‘zlarining struktural-semantik va kommunikativ-pragmatik xususiyatlari bilan tilning paremiologik sathida maxsus tizimga egaki, maktab, litsey, institut va universitetlarda ularning o‘quvchi va talabalar tomonidan o‘rganilishi, maqollarning o‘qitilishi va tarjima qilinishi jarayonida bir qator qiyinchiliklar mavjud bo‘lib, ularni bartaraf qilish uchun qiyosiy-tipologik tadqiqotlar o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Biz quyida arab tilida vakti ifodalovchi paramiologik birliklar (paremiemalar), ya’ni maqollar va ularning o‘zbek tiliga tarjima qilish usullari xaqida fikr-mulohazalar yuritimiz.

Ma’lumki, xar qanday fikr ibratli bo‘la olmaydi, xar qanday ibratli fikr esa maqol. Shunday ekan, ibratli fikrning maqolga aylanishi uchun ayrim shartlar mavjud. Birinchidan, maqolga aylanuvchi fikr xalqning ko‘p yillik ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, xayotiy tajribasida sinalgan bo‘lishi lozim. Ana o‘shanda u fikr ibratlilik kasb etadi, kishilarni ishontira oladi. Ikkinchidan, maqolda ifodalangan fikr umuminsoniy xarakter kasb etishi lozim, uchinchidan, xar ikki shartga javob beruvchi ibratli fikr ixcham, mukammal, badiiy jihatdan puxta, kristall shaklga ega bo‘lishi kerak. Ko‘rsatilgan ana shu uch shart to‘liq yuzaga chiqqandagina, ibratomuz fikr maqolga aylanadi.

---

<sup>67</sup> Словарь иностранных слов. – М., 1955, - С. 515

Arablarning <sup>68</sup> ما قولك ان لم تقطعه قطعك o'zbek tiliga «Vaqt qilich kabidir , agar sen uni kesmasang u seni kesadi .» tarzida tarjima qilinadi. O'zbek tilida bunga mos xolda quyidagi variantlarni xam berish mumkin. Masalan: «Vaqt – oltinga tengdir», «Vaqtning ketdi – naqding ketdi», «Fursatni o'tkazding – yutqazding», «Vaqtdan yutding – baxtdan yutding.»

Yana maqollar va ularning tarjimalariga e'tibor beraylik.

<sup>69</sup> لا تؤخر عمل اليوم الى الغد - ushbu maqol ya'ni paremiologik birikma o'zbek tilida o'ziga xos muqobil variantga egadir. O'zbek tilidagi «Bugungi ishni ertaga qo'yma» maqoliga ma'no jihatidan munosib variant hisoblanadi.

- <sup>70</sup> الكلاب تنبح و القافلة تسير ushbu maqolning o'zbekcha muqobili «It hurar –karvon o'tar» va bunga qo'shimcha tarzda yana quyidagi maqolni keltirishimiz mumkin. «Vaqt – uchqur qush», «Vaqt kutib turmaydi» kabi paremiologik birikmalarga ma'nodosh bo'la oladi.

<sup>71</sup> الوقت كنز ان ضعيفه ضعت - ushbu maqolning o'zbekcha muqobili : «Vaqt bamisoli xazinadir , zoye qilsang zoye ketadi». Vunga qo'shimcha tarzda quyidagi paremiologik birikmalarni keltirishimiz mumkin : «Fursatni o'tkazding yutqazding», «Vaqtning ketdi – baxting ketdi», «Vaqtning ketdi – naqding ketdi» kabi paremiologik birliklarni sanab o'tish joizdir.

Agar vaqtning ahamiyati haqida tafakkur qiladigan bo'lsak, ularning нақадар g'animat lahzalar ekanligi ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi: O'tib ketgan vaqt hech qachon qaytmaydi va uning o'rnini ham to'ldirib bo'lmaydi

<sup>72</sup> الوقت من الذهب - ushbu paremiologik birikmaning o'zbekcha variantlari ham bisyor. Masalan: «Vaqt oltinga tengdir», «Vaqt oltindan qimmatdir», «Vaqt – uchqur qush», «Har bir ishning o'z vaqti bordir» kabi hikmatli so'zlarni keltirib o'tishimiz mumkin.

<sup>68</sup> [www.mawdoo3.com](http://www.mawdoo3.com) / حكم\_عن\_الوقت

<sup>69</sup> [www.mawdoo3.com](http://www.mawdoo3.com) / حكم\_عن\_الوقت

<sup>70</sup> [www.mawdoo3.com](http://www.mawdoo3.com) / حكم\_عن\_الوقت

<sup>71</sup> [www.mawdoo3.com](http://www.mawdoo3.com) / حكم\_عن\_الوقت

<sup>72</sup> [www.mawdoo3.com](http://www.mawdoo3.com) / حكم\_عن\_الوقت

Inson xayotida vaqt eng qimmatli narsa sanaladi. Ko'rgan ota-bobolar maqollar va hikmatli so'zlar vositasi bilan vaqtning har bir daqiqasidan nihoyatda unumli foydalanishga, biror daqiqani ham zoye o'tkazmaslikka da'vat etganlar.

Shu tarzda paremiologik birliklardan tarkib topgan uslubiy figuralar xam bizning nazarimizda, asta-sekin ommalashib va sayqallanib, xikmatlar xazinasini boyishiga xizmat qiladi.

Shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, xalqlar ijtimoiy xayoti, iqtisodiy turmush tarzi in'ikosi sifatida paydo bo'lgan tillararo mushtarak iboralar tarjima jarayonida bir - birini to'ldirib boradi.

Maqollar yosh avlod tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Shu qatori vaqt konseptini ifodalovchi maqollarda o'tayotgan vaqtni qadriga yetish tejamkorlik bexudaga sarflamaslik undan to'g'ri foydalanish kabi xikmatlar o'z aksini topadi. Masalan:

73 <sup>الوقت من ذهب ان لم تدرکه ذهب</sup> - "Vaqt oltindandir, agar unga yetib olmasang u ketib qoladi". Ushbu maqolda vaqtning ahamiyati to'g'risida to'xtalib o'tilgan. Bunga quyidagilarni qo'shimcha qilishimiz mumkin: "Fursatni o'tkazding yutqazding", "Vaqtdan yutding – baxtdan yutding" va boshqalar.

74 <sup>الوقت اجدر بان يصادق لا يقاتل</sup> - bu paremiologik birikmada shuni aytilmoqdaki " Vaqt shunday narsaki, u bilan do'st bo'lish kerak, uni o'ldirish kerak emas", ya'ni befoyda narsalarga sarflamaslik kerak. Vaqt shunchalik qimmat va bebaho bo'lishiga qaramasdan ko'pchilik insonlar uning bu qiymatini his etmaydilar, natijada undan foydalanib qolish uchun emas balki uni zoye qilib yo'qotish uchun musobaqalashadilar. Bunday "musobaqachilar" uning bebaho ulushidan mahrum insonlardir. Bu haqda hadisi sharifda quydagicha bayon qilingan:

---

<sup>73</sup> [www.mawdoo3.com/](http://www.mawdoo3.com/) \_ حکم\_ عن\_ الوقت

<sup>74</sup> [www.mawdoo3.com/](http://www.mawdoo3.com/) \_ حکم\_ عن\_ الوقت



Tahlillarimiz shuni ham ko'rsatdiki, maqollar ikki struktural-semantik turga bo'linar ekan:

- 1) sodda gap bilan ifodalangan maqol;
- 2) ko'shma gap bilan ifodalangan maqol.

Bir tildan ikkinchi tilga o'girayotganda bunday translyatemalarning iloji boricha xam turi, xam ma'nosini saqlab qolishga harakat qilish lozim ( unda bu analogik tarjima usuli deb yuritiladn). Ba'zida maqolni ifodalovchi translyatemaning faqat ma'nosi saqlab qolishitaqozo etiladi, ( bunday usulni ekvivalent tarjima usuli deb qaraladi). Uchinchi usulda translyatemaning turi butunlay barxam topadi, uning manosi esa sharxlash bilan kifoyalanadi, yani bu yerda yaxlit ma'no yo'qolib, uning o'rnini tushuntirish va sharxlash qoplaydi. Unda maqol o'zining paremiologik maqomini yo'qotadi va oddiy sharxga aylanib qoladi.

Maqollarning yana bir jixati shundaki, ular frazeologik birliklar sifatida yaxlit va betakror struktura va semantikaga ega, shu bois maqollarni shakli va semantikasi turg'un bo'lib, avloddan avlodga o'zgarmay o'tib keladi.

Malakali chet tili o'qituvchilari tayyorlashda tarjima muhim ahamiyat kasb etadi, chunki o'qituvchining darsni tashkil etish va dars jarayonida tarjimadan unumli va maqsadli foydalana bilishi ko'p jihatdan dars samaradorligini oshirish garovidir. Bu ayniqsa milliy auditoriyalarda, ya'ni ko'pchilik holatlarda chet tilini ikkinchi yoki uchinchi til sifatida o'qitishda muhim rol o'ynaydi. Arab va o'zbek tillari turli tizimdagi tillarga mansub ekanligi uchun ham chet tili hodisalarini chuqurroq tushunib olishda tarjima asosiy vosita hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan olib borayotgan aloqalarining o'sishi va jamiyatimizda kechayotgan integrallashuv jarayoni jamiyatning barcha jabhalarida tarjimaga bo'lgan ehtiyojni keskin oshirib yubordi. Shuning uchun ham sharq tillari fakultetini bitiruvchilarini ko'p hollarda davlatimizning turli xil mahkamalarida, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda ish olib borayotgan korxonalarda, xalqaro turizm bilan shug'ullanayotgan tashkilotlarda

umuman olganda tarjimonga ehtiyoj sezilayotgan turli tashkilotlarda ishlashga taklif qilinayotgan holatlarni ko‘plab uchratish mumkin. Bu esa o‘z navbatida talabalarimizda tarjimonlik ko‘nikma va malakalarini shakllantirish davr talabi ekanligini ko‘rsatmoqda.

### **Xulosa**

Arab va o‘zbek tilida “vaqt” konsepti ustida olib borilgan bitiruv malakaviy ishimizning dolzarbligi mazkur konsept bilan bog‘liq masalalar bugungacha qiyosiy planda pretsedent birlik misolida to‘liq tadqiq etilmaganligi bilan belgilanadi.

Konsept ko‘rinmas tafakkur kategoriyasi va bu uning izohlanishi uchun katta imkoniyat yaratadi. Konsept bir-biriga bog‘liq, bir butun qoidaga ega g‘oyalar yig‘indisi. Konsept matnda bir butun ko‘rinishda namoyon bo‘lib, matnda aks etgan mazmuni ochib berishga xizmat qiladi.

Yuqorida qilingan tahlillarning natijasi sifatida quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

1. “Vaqt” konsepti lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq uchun qiziqarli. Jahon tilshunosligida “vaqt” konsepti tadqiqi bir til doirasida, ikki va undan ortiq tillar doirasida, bir tilning ikki xil davri misolida bir qator ishlarda o‘rganish obyekti va predmeti bo‘lgan.
2. Arab va o‘zbek tillarida “vaqt” konsepti ifodalanishining o‘ziga xos va farqli jihatlari o‘rganildi.

Konsept – zamonaviy lingvistikaning neng mashxur va eng aniq atamalaridan biridir.U birinchi navbatda kognitiv-pragmatik metodologiya bilan bog‘liq bo‘lib,ijod

namunalari – matnlarda insonning mafkuraviy intellektual va hissiy niyatlarini aks ettirish uchun “nutq”, “dunyo tasviri” kabi kalit soʻzlar bilan bir qatorda qoʻllaniladi.

Lingvistikada konsept tushunchasining tasdiqlanishi til, tafakkur va madaniyat oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir xususiyatlari, qonuniyatlari va uslublarini oʻrganishni yangi pogʻonalarga koʻtardi, tilshunoslik, kognitologiya (bilish fani), madaniyatshunoslik, falsafa, psixologiyaning, oʻzaro taʼsirining yangi qirralarini ochib berdi, lingvistik hodisalarni mazmunli tahlil qilish koʻlamini kengaytirdi va semantika sohasidagi tadqiqotlar uchun samarali boʻldi.

Arab tilida “zamon, davr vaqti”, “vaqt, payt, on”, “mavsum, payt” maʼnolarida asosan *وَقْتُ* koʻp. *أوقات* soʻzi ishlatiladi. Maslan: *وقت أوربا الوسطي* oʻrta Ovrupo vaqti, *وقت اضافي*, *وقت sport*. qoʻshimcha vaqt, *في أوقات العمل* *yoki* *في أوقات الدوام* ish, xizmat vaqtida, *وقت صرف الوقت* vaqt oʻtkazmoq, *كان الوقت صباحا* tong payti edi.

Arablarning “الوقت كالسيف، ان لم تقطعه قطعك” maqoli oʻzbek tiliga «Vaqt qilich kabidir, agar sen uni kesmasang u seni kesadi.» tarzida tarjima qilinadi. Oʻzbek tilida bunga mos xolda quyidagi variantlarni xam berish mumkin. Masalan: «Vaqt – oltinga tengdir», «< Vaqting ketdi – naqding ketdi>», “Fursatni oʻtkazding – yutqazding”, “Vaqtdan yutding – baxtdan yutding.”

Yana maqollar va ularning tarjimalariga eʼtibor beraylik.

*لا تؤخّل عمل اليوم الى الغد* - ushbu maqol yaʼni paremiologik birikma oʻzbek tilida oʻziga xos muqobil variantga egadir. Oʻzbek tilidagi “Bugungi ishni ertaga qoʻyma” maqoliga maʼno jihatidan munosib variant hisoblanadi.



## **Foydalanilgan adabiyotlar**

### **Siyosiy adabiyotlar**

1. Karimov I.A. Asarlar. 4-jild. Bunyodkorlik yo'lidan. – T.: O'zbekiston, 1996.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016.
3. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2017.
5. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2017.
6. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: Sharq, 1997.

### **Arab tilidagi manbalar**

1. القاموس الجديد للطلاب. معجم عربي , مدرسي, الفبائي. تونس. 1985.
2. الشيخ مصطفى الغلاييني. الدروس العربية . بيروت. 1993.
3. المنجد في اللغة, بيروت, 1994

### **O'zbek va rus tillaridagi adabiyotlar**

1. Абдуазизов А. Тилшунослик назариясига кириш. –Т.: “Шарқ”, 2010.
2. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. –М.: Языки русской культуры, 1999.
3. Аскольдов С.А. Концепт и слово . – М.: Academia, 1997.
4. Афанасьева О.В. Семантическая структура концепта «время» и ее отражение во фразеологических системах английского, испанского и русского языков. Автореферат дисс. канд. филол. наук. Казань, 2007.
5. Баруздина С. А. Время как лингвокультурный концепт. Москва
6. Большой энциклопедический словарь. 2002.
7. Воркачев С.Г. Концепт счастья в английском языке.// Проблемы концептологии. – М.: 2002.
8. Горелова Н.Е. Отношение ко времени в японской и русской лингвокультурах. Москва, 2015
9. Елизова Т.К. Специфика научного концепта «время» в английском и русском языках. Филологические науки. Вопросы теории и практики, № 7 (18) 2012, часть 1
- 10.Залевская А.А. Текст и его понимание. Тверь, 2001.
- 11.Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. 1 жилд. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 1997.
- 12.Иброҳимов Н., Юсупов М. Араб тили грамматикаси. 2 жилд. – Т.: “Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи”, 2004.
- 13.Ильинская Т.Н. История формирования и эволюции концепта «сила» во французском и русском языках. . Автореф. дисс. к. филол.наук. Томск, 2006.
- 14.Карасик В.И. Языковая личность: аспекты лингвистики и лингводидактики. – Волгоград. 1999.
- 15.Краткий словарь когнитивных терминов. – М.: 1996.

16. Лукьянченко Е.А. К вопросу выражения концепта времени в различных лингвокультурах. Научная жизнь.
17. Лихачева Д.С. Концептосфера русского языка. – М.: Владос, 1995.
18. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – М.: Тетра Системс, 2004.
19. Махмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. – Т.:, 2012. -№ 5.
20. Набережная З. Г. Категория времени как один из элементов языковой картины мира. Москва, 2011.
21. Никишина И.Ю. Понятие “концепт” в когнитивной лингвистике. – М.: 2001.
22. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. –Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. 2006-2008.
23. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. -М.: АСТ: Восток-Запад, 2007.
24. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры: Опыт исследования. – М.: 2001.
25. Usmonova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari (o‘quv qo‘llanma).- Т.: ToshDShI, 2015.
26. Шеховцева Т.М. Вербализация концепта”сила” в современном английском языке. Автореф. дисс. к. филол.наук. Белгород, 2011.
27. Темкина В.Л, Ларионова И.А. Метафоризация концепта “время” в среднеанглийском и современном английском языке. Москва, 2004
28. Куръони Карим ва ўзбек тилидаги маънолари таржимаси. – Т.: “Шарқ”, 2009.
29. Халидов Б.З. Учебник арабского языка. – Т.: “Ўқитувчи”, 1981.
30. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати.-Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2002.

#### **Internet saytlari**

1. <https://ar.wikipedia.org/wiki/قوة>
2. [www.islom.uz/view/vakt-haqida](http://www.islom.uz/view/vakt-haqida)
3. [www.mawdoo3.com](http://www.mawdoo3.com) / [حكم\\_عن\\_الوقت\\_](#)
4. <https://studylib.ru/doc/641258/pashkevich>
5. [http://www.dissland.com/catalog/lingvokulturniy\\_kontsept\\_vremya](http://www.dissland.com/catalog/lingvokulturniy_kontsept_vremya).